

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI
VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TABIY FANLAR FAKUL`TETI

**«Geografiya o`qitish metodikasi» ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabasi
Shomurotova Feruza Matkarimovna
«Shimoliy G`arbiy O`zbekistonda agrosanoat majmuasining shakillanishi
va rivojlanish xususiyatlari» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Geografiya o`qitish metodikasi kafedrası professori,
geografiya fanlari doktori

UMAROV E.K.

Kafedra mudiri:

v.v.a. ABDIRAMANOV J.

NUKUS-2016 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I-BOB. SHIMOLIY G`ARBIY O`ZBEKISTONDA AGROSANOAT MAJMUASINING RIVOJLANISHIGA TABIIY VA IQTISODIY SHAROITLARINING TASIRI (Quy Amudaryo misolida)

- 1.1. Quy Amudaryo tabiiy sharoiti va uning agrosanoat majmuasi tarmoqlarining rivojlanishiga tas`iri.....6
- 1.2. Quy Amudaryoning agroiqlim sharoiti, Suv resurslari va irrigatsiya tarmoqlariga tarif hamda undan qishloq xujaligi sohalarida aqilona foydalanish.....10
- a/ Quy Amudaryoning agroiqlim resurslari.....10
- b/ Quy Amudaryoning suv resurslari va irrigatsiya tarmoqlariga tarif.....13
- 1.3. Quy Amudaryo ma`muri rayonlarida mexnatning rayonaro taksimlanishi va uning agrosanoat majmuasining shakillanishi va rivojlanishiga tasiri.....21

II-BOB. QUYI AMUDARYONING ADMINISTRATIV RAYONLARIDA QISHLOQ XO`JALIGINI RIVOJLANISHI VA GEOGRAFIK JOYLASHISHI

- 2.1. Ekologik inqiroz sharoitida Jano`biy g`arbiy O`zbekistonda qishloq xo`jaligi sohalarini Agrosanoat majmuasi shaklida rivojlantirishning asosiy bosqislari.....28
- 2.2. Qo`yi Amudaryo mintaqosida qishloq xo`jalik maqsulatlari ishlaydigan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish muammolari.....43
- 2.3. Qoraqalpog`iston Respublikasida qishloq xo`jaligini rivojlanishi va geografik joylashishi.....49
- 2.4. Xorazm viloyatida qishloq xo`jaligini rivojlanishi va geografik joylashishi.....59

III-BOB. EKOLOGIK INQIROZ SHAROYITIDA QUYI AMUDARYO REGIONIDA QISHLOQ XO`JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASSOSSIY YO`NALISHLARI.....75

XULOSA.....83

ADABIYOTLAR.....86

KIRISH

I.Mavzuning dolzarbligi: Markazlashgan ittifoq davrida respublika qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi va umuman agrar iqtisodiyati tarmoqlarining markazdan buyruqbozlik asosida boshqarish va rejalashtirish tizimidan, bozor iqtisodiyati talablari doirasida xo`jalik yuritish tizimiga o`tkazilishi barcha sohalarda keskin o`zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Nihoyat, boqimandalik kayfiyati yo`qola boshladi, tadbirkorlik va ishbilarmonlik (biznes) yo`lida turgan ko`p to`siqlar olib toshlandi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlab o`tganidek, islohatlarning ikkinchi bosqichida umuman ishlab chiqarishning resurs salohiyatidan qishloq xo`jaligi majmuida, jumladan ekin maydonlari tarkibini har bir xududning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda eng maqbul ko`rinishiga keltirish yo`li bilan chinakam ilg`or siljishlarga erishish tarkibiy o`zgartirishlar siyosatining eng muhim ustuvor yo`nalishi hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib respublikamizda etishtiriladigan qishloq xo`jaligi maxsulotlarining 95-97 foizidan ortig`i nodavlat mulkchiligi asosida faoliyat yuritaётgan korxonalar zimmasiga to`g`ri keladi. Kup ukkladli agrar iqtisodiyatning shakllanishi uchun zarur me`oriy va huquqiy asoslar yaratildi va ular takomillashtirilmoqda. Shu bois respublika xududlarida, jumladan Xorazim viloyati resurs salohiyatidan axilona foydalanish bugingi taloblaridan hieoblanadi.

II. Tadqiqat ishining maqsadi va vazifalari: Ilmiy ishning asosiy maqsadi Qo`yi Amudaryoda resurs salohiyatidan samaroli foydalanish yo`libilan Qo`yi Amudaryoda agrosanoat komplekslari rivojlantirishning muammolarini o`rganib, uni echish yullarini ko`rsatib berish hisoblanadi.

Yuqorida kursatilgan maqsaddan kelib chiqqan holda hanigaliu bitruv ishida quyidagi vazifalar qo`yildi:

- Qo`yi Amudaryoda ishlab chiqarish kompleksining rivojlanishiga tabiiy sharoit va resurslarning tasirini o`rganish;
- Qo`yi Amudaryoda agrosanoat kompleksining rivojlanishiga tasir ko`rsatuvchi faktorlarni aniqlash;

- Agrosanoat komplekslarini rivojlantirishda er-suv va mehnat resurslarining mavqiyini aniqlash;
- Qo`yi Amudaryoda agrosanoat komplekslarining joylashishini o`rganish;
- Ishlab chiqarish komplekslarini rivojlantirishning muammolarini o`rganish va kelgusida Qo`yi Amudaryoda resurs saloxiyatidan samarali foydalanish yo`llarini belgilash;

III. Muammoning o`rganilganlik darajasi: Mamlakatimizda mustəhillilikga erishish bilan ishlab chiqarish saxalorida xo`jaliqni yuritish usullarini yaxshi yo`lga qo`ygan bobo dehqonlar eli. Qo`yi Amudaryoda qishloq infratuzilmasi, agrosanoat komplekslari muammolari ma`lum darajada o`rganilmoqda. Oliy o`quv yurtlarida qishloq xo`jaligi sohalari buyicha kadrlar tayyorlash yaxshi yo`lga qo`yilgan. Agrosanoat komplekslarini joylashtirish va rivojlantirish masalalari bo`yicha olimlarimiz ancha ilmiy ishlar yaratgan. Lekin, biz o`rganayotgan Qo`yi Amudaryoda ishlab chiqarish komplekslari haqida tula o`rganilmagan zayif bo`g`inla mavjud.

Hozirgi paytdagi Qo`yi Amudaryoning ishlab chiqarish komplekslarini rivojlantirishning muammolari tula echimini topmagan. Mustaqillik yillaridagi qishloq xo`jaligidagi, shuningdek boshqa saxalordagi bo`lgan o`zgarishlar bu mavzu bo`yicha maxsus ilmiy tadqiqotlarni talab etmoqda.

IV. Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Bu ilmiy ish Qo`yi Amudaryoda resurs zaqiralaridan ahilano foydalanish yo`libilan ishlab chiqarish komplekslarini rivojlantirishning muammolarini majmuali o`rganishga yo`naltirilgan ilmiy tadqiqot ish xisablonadi. Avtor tamonidan tadqiqot ishida quyidagi masalalar ishlab chiqildi:

- Qo`yi Amudaryoda chiqarish kompleksining rivojlanishining tarixi bosqishlari o`rganildi;
- Qo`yi Amudaryoda kompleksining rivojlanishiga tabiiy sharoit va resurslarning tasiri o`rganildi;
- Qo`yi Amudaryoda kompleksining rivojlanishiga tasir ko`rsatuvchi faktorlarni aniqlandi va ularini samarali foydalanish yo`llari uganildi;
- Agrosanoat komplekslarini rivojlantirishda tuman aholisining, mehnat resurslarining roli aniqlandi;

- Qo`yi Amudaryo agrosanoat komplekslarining joylashishi o`rganildi va uning ayrim saxalorini rivojlantirishga ta`sir qiluvchi muammolari aniqlandi;
- Qo`yi Amudaryoda agrosanoat komplekslari bilan bog`liq bo`lgan muammolarni echish yo`llari belgilandi.

V.Ishning amaliy ahamiyati: Tadqiqotning natijalari ishlab chiqarish komplekslarini joylashtirishda, rivojlantirishda, agrosanoat komplekslari bilan bog`liq bo`lgan muammolarni echishda davlat va nodavlat korxonalar, shuningdek Qo`yi Amudaryo miqyosidagi tashkilotlarga amaliy yordam sifatida xizmat qiladi.

VI. Malakavi bitiruv ishining tarkibi kirish, ush bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ruyxati va qo`chimshalar bilan iborat.

**I-BOB. SHIMOLIY G'ARBIY O'ZBEKISTONDA AGROSANOAT
MAJMUASINING RIVOJLANISHIGA TABIIY VA IQTISODIY
SHAROITLARINING TASIRI**

(Quyi Amudaryo misolida)

**1.1. Quyi Amudaryo tabiiy sharoiti va uning agrosanoat majmuasi
tarmoqlarining rivojlanishiga tas'iri**

a/. er resurslari va ulardan qishloq xujalik tormaqlarida foydalanish. Quyi Amudaryo regionini dunyodagi eng yirik saxrolar Qizilqum va Qoraqum chullari orasidagi Amudaryoning allyuvial yotkiziklaridan tarkib topgan unumdor polosani egallab, qishloq xujalik soxalarida foydalanish uchun yaroqli katta er-suv resurslariga ega. Lekin bu zonada erni faqat quldan sug'orish asosidagina qishloq xujaligida foydalanishga buladi. Janubiy Orolning qishloq xujaligida yaroqli barcha sug'oriladigan ekin maydonlari Tuyamuyin va Taxiatosh gidrouzellari ta'sir etadigan zonada joylashgan. Bu zonaning administrativ rayonlar chegarasida aniqlangan er fondi 24,5 mln. gektarni tashqil etib, bu butun Markaziy Osiyoning 6,5% xududiga tug'ri keladi (jadval-1).

Jadval-1

**Quyi Amudaryoning administrativ rayonlarida er fondining kategoriyalar
buyicha taksimlanishi (1. 01.2014 yilgi ma'lumot buyicha)**

Kursatkichlar	Mintaqa bo'yicha jami, ming ga.	Jumladan		Quyi Amudaryo mintaqasiga, % xisobida	
		Xorazm viloyati	Korakalpogiston Respublikasi	Xorazm viloyati	KR
1. Qishloq xujalik korxonalar va xujaliklari ixtiyoriy erlar	7633,5	812,9	6820,6	10,6	89,4
2. Qishloq xujaligida foydalanadigan erlar, jumladan	4890,8	577,4	4313,4	11,8	88,2
Surishga yaroqli er fondi	1985,0	375,0	1610,0	18,8	81,2
Kamishzorlar va yaylovlar	4319,3	346,3	3973,0	8,1	91,9
Kup yillik daraxtlar maydoni	14,3	12,0	2,3	84,0	16,0

Tuyamuyin va Toxiatosh gidrouzellari ta'sir qiluvchi xonasida joylashib, qishloq xujaligida yaroqli foydalaniladigan erlar xajmi 12,1 mln. ga teng. Shuning faqat 2,9 mln. gektari yoki, 24,4% i surumga yaroqli erlar, qamishzorlar va

yaylovlar esa 9,1 gektar yoki 75,4%ni egallaydi. Qishloq xujaligiga yaroqli erlarning bunday tartibda bo'lishi, bu zonaning tabiiy iqlim sharoitiga bog'liq bulib, kupchilik xududini qumliklar egallaydi. Tuyamuyin gidrouzeli ta'sir qiladigan zonada qishloq xujaligiga yaroqli 4,7 mln. gektar er fondi bulib, shuning 810,0 ming gektari, yoki 17,0%i surumga yaroqli erlarga kiradi. Qamishzorlar va yaylovlar 35,4% maydonni egallagan. Taxiatosh gidrouzeli ta'sir qiladigan zonada qishloq xujaligiga yaroqli 5,2 mln. gektar er fondi bulib, shundan surumga yaroqli erlar 45,4%ni egallaydi. Bu zonada sug'oriladigan erlarni kengaytirish uchun katta imkoniyatlar bor. Tuyamuyin va Taxiatosh gidrouzeli ta'sir qiladigan zonada kup yillik daraxzorlarning umumiy maydoni 23,4 ming gektarni egallab, qishloq xujaligiga yaroqli er fondining faqatgina 0,2%ni tashqil etadi.

Xozirgi vaqtda Taxiatosh va Tuyamuyin gidrouzeli ta'sir qiluvchi zonada sug'orib ekiladigan ekin maydonlarining xajmi ortmoqda. Faqat Tuyamuyin gidrouzeli ta'sir qiladigan zonada sug'orib ekiladigan qishloq xujalik ekin maydoni 610,7 ming gektarni tashkil qiladi, Taxiatosh gidrouzeli zonasi 400,3 ming gektar er sug'orib ekiladi. Shunday qilib, xozir er fondining 34%dan ortiqrogi qishloq xujaligida foydalaniladi.

Agar Quyi Amudaryoning administrativ rayonlar buyicha tadqiq qilingan surumga yaroqli er fondini 2,9 mln. gektar deb xisoblasak, shuning katta bir qismi Taxiatosh gidrouzeli zonasida joylashgan.

Tuyamuyin va Taxiatosh gidrouzeli zonasi da surumga yaroqli ekin maydonlarining konturini quyidagicha xarakterlashga buladi (jadval-2).

Jadval-2

Surumga yaroqli er fondi va uning joylashuvi

Administrativ rayonlar va gidrouzellar	Surimga yarakli er fondi ming. ga	% xisobida
1. Tuyamuyin gidrouzeli ta'sir kiluvchi zonada , jumladan:	810,0	27,5
Xorazim viloyati	375,0	42,3
Korakalpoqiston Respublikasi	200,0	24,7
2. Taxiatosh gidrouzeli ta'sir kiladigan zonada , jumladan:	2138,0	72,5
Korakalpoqiston Respublikasi	1410,0	65,3
Jami:	2948,0	100,0

Jadvalda kursatilganidek Taxiatoş gidrouzeli ta`sir qiladigan zonada 2,1 mln. gektar surumga yaroqli er fondi bulib, bu umumiy surumga yaroqli er fondining 72,5% ini tashqil qiladi. Demak, Taxiatoş gidrouzeli zonasida surumga yaroqli erlar kup joylashgan.

Xozirgi vaqtda Quyi Amudaryoning administrativ rayonlarida barcha ekin maydoni 1011,2 mln. gektarni tashqil qiladi, bu surumga yaroqli erning 35%i degan suz. Ayrim yillar ichida ekin maydonlarining usish dinamikasini quyidagi 3-jadvaldan ko`rishga bo`ladi

Jadval-3

**Quyi Amudaryo mintohasida ekin maydonlarining strukturasi.
(2013 yilgi ma`lumot buyicha).**

	Ming ga	% xisobida
1. Paxta	237,8	38,2
2. Donli ekinlar	201,6	28,2
3. Poliz va bog ekinlari va kartoshka	42,1	4,2
4. em-xashak ekinlar	139,7	22,4
Jami:	621,2	100,0

Yuqarida kursatilganidek, 25 yil ichida ya`ni 1970-1995 yillar ora-ligida ekin maydonlarining xajmi 1970 yillardagi 447,9 ming gektardan 1995 yilgacha 1mln. 11,2 ming gektarga yoki 523,3 ming gektarga kupaydi. Shuning ichida Tuyamuyin gidrouzeli ta`sir qiladigan zonada 1970 yilga kelib, 307,4 ming gektardan 1995 yilga kelib 610,7 ming gektarga kupaysa, Taxiatoş gidrouzeli ta`sir qiladigan zonada 170,5 ming gektardan 1995 yilga kelib 400,5 ming gektarga kupaydi. Shunday qilib xozirgi kunlarda Taxiatoş gidrouzeli zonasida ekin erlarining maydoni 400,5 ming gektarni ya`ni surumga yaroqli erlarning 13%igina foydalanilmoqda. Bu surumga yaroqli er fondining 57,7%ini tashqil qiladi. Bu va boshqa ma`lumotlar Taxiatoş gidrouzeli zonasida xanuz foydalanilmayotgan surumga yaroqli er fondining kup ekanligini kursatadi. Ekin maydoni tarkibini taxlil qilganda, paxtachilikka 43%i tug`ri keladi.

Paxtachilikdan keyin ekin maydonining xajmi buyicha yuqori ulushni donli ekinlar egallaydi va ular barcha ekin maydonlarining 38,2%ini tashkil etadi. em-xashak ekinlari umumiy maydonning 139,7 ming gektarini yoki 22,4%ini

egallaydi. Tuyamuyinva Taxiatosh gidrouzellari zonasida ekin erlarining maydonini yanada kengaytirish suv resurslarini kupaytirish va undan oqilona foydalanish yuli bilan amalga oshiriladi. Qushimcha ekin maydonlari buz erlar xisobidan kengaytirilmoqda. Amudaryo xavzasida er-suv resurslaridan foydalanishning umumiy sxemasining ekinishiga (Tojikiston, Turkmaniston va Uzbekiston Respublikalari orasida) bog`lik Surxondaryo, Buxoro, Kashkadaryo, Chorjou, Xorazm viloyatlarida sug`orma ekin maydonlarini kupaytirish ishlari bekor sur`atda olib borilmokda. Shuningdek, Tuyamuyin va Taxiatosh gidrouzellarining qurilishi bilan Quyi Amudaryoda sug`oriladigan maydonlar 1011,2 ming gektarga etkazildi, yoki bu 1970 yilga nisbatan 2,3 xissa kupaydi. Sug`orib ekiladigan ekin maydonlari Xorazm viloyatida xam kengaytirildi. Buz erlar xisobiga Turtkul, Beruniy, Ellikkala tumanlari xududidan janubiy Xorazm viloyatining massivlarida h m yangi paxtachilik xujaliklari tashkil etildi. Sug`orma dexqonchilikni rivojlantirish uchun yaroqli erlar Taxiatosh gidrouzeli zonasida ancha kup. Bu erda Qoraqalpog`iston Respublikasining Qizketgan va Suenli kanallari zonasida bir qancha rayonlari kiradi.

Quyi Amudaryoning er fondining tarkibida kamishzorlar, butazorlar yaylovlar xam kup maydonlarni egallaydi. Ularning umumiy maydoni 9 mln. 103 ming gektarga teng. Shuning 3973 ming gektari Qoraqalpog`iston Respublikasi, qolgan 346 ming gektarga yaqini Xorazm viloyatlarining adminstrativ xududlarida joylashgan. Xisobga olingan yaylovlar juda kup maydonni egallaydi. Shundan faqat Ustyurtdagi tabiiy utloqlar 7 mln.1 gektardan ortiqroq. Demak,Ustyurtning tabiiy utloqlarini xalq xujaligi soxasida foydalanishga qushish va uning xosildorligini oshirish, faqatgina shu zona xisobidan quylarning sonini 1,1 mln. boshga kupaytirishga imkon beradi. Yoki Qoraqalpog`istonni kelajakda eng yirik quy chorvachiligiga ixtisoslashgan rayonlarning biriga aylantirishga, xatto Qarshi, Qorakul dalalarini yirik paxtachilik zonasiga aylantirish rejalarini echishga buladi.

Quyi Amudaryo administrativ rayonlari buyicha xisobga olingan yaylovlar xajmi Zaunguz Qoraqumi, Qizilqum va Ustyurtni qushib xisoblaganda 16,6 mln.

gektarga teng. Lekin bu yaylovlar em-xashak resurslarining uzlashtirilishida yuborilgan kamchiliklar va sug`orish bilan bog`lik xalq xujaligida foydalanishga qushilgani yuk. Ayrim rayonlar buyicha chulli yaylovlarning geografik tarqalishi va uning em-xashak zapaslarini quyidagi ma`lumotlardan kurishga buladi.

Jadval-4

Quyi Amudaryo mintohasida chul yaylovlarining geografik tarkalishi va undan foydalanishning xozirgi darajasi

Zonalar	em-xashak zaxiralari, ming tonna	Quylarni saqlash imkoniyati, ming bosh xisobida	Xozir bokilayot. quy-lar bosh soni, ming bosh	Yaylovlardan foydalanishning xozirgi darajasi, %
Qizilkum	3252,1	1088,0	1119,7	55,8
Zaunguz qoraqumi	4914,4	540,0	383,0	70,9
Ustyurt:	1100, 0	1200,0	157,9	13,2
Jami:	9266,5	2828,0	1660,6	58,7

Jadvalda berilgan ma`lumotlarga kura Qoraqalpog`istonning Qizilkum yaylovlarida 3,2 mln. gektar maydonni egallab, uning mol bokishga yaroqlilik imkoniyati xammasi bulib 55,8% idan foydalanilsa, Zaunguz Qorakumining mol chorvachiligi uchun yaroqli em-xashak zaxiralaridan foydalanish darajasi faqat 70,9% ni, Ustyurt yaylovlari esa 13,2 protsentni tashqil qiladi. Ustyurt yaylovlarining mol chorvachiligi uchun yaroqli erlari xammasi bulib 4,7% idangina foydalanilmoqda. Shunga muvofik yaylovlarni sug`orish va uning em-xashak zaxiralarini boyitish kun tartibidagi dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

1.2. Quyi Amudaryoning agroiklim sharoiti, Suv resurslari va irrigatsiya tarmoqlariga tarif hamda undan qishloq xujaligi sohalarida aqilona foydalanish

a/. Agroiklim resurslari. Quyi Amudaryoning er yuzasi tekisligi va materikning ichkarisida joylashuvi rayonga qish oylarida shimoldan sovuq xavo massalarining tarqalishiga kuchli ta`sir qiladi. Shunga bog`liq rayonning iqlimi keskin kontinental bulib xisoblanadi. Yillik xarorat uzgaruvchan bulib, yogin-sochin mikdori kam. Agar, bir mavsumda yogin-sochin kam bulsa, u ikkinchi bir mavsumda kup yogadi. Xavo xarorati dexqonchilikni rivojlantirishga va qishloq xujalik ekinlarining xosildorligini orttirishga ta`sir qiluvchi asosiy omillarning biri

xisoblanadi. Muynoqda xavoning urtacha yillik xarorati 10,6 gradus bulsa, Urganchda 12,5 gradusga teng. Qoraqum va Qizilqum tomonidan issiq xavo tarqalishi bilan martning dastlabki un kunligidan boshlab xarorat yuqorilay boshlaydi. Ayniqsa yozda xavoning urtacha dekadalik natijali xarorati kuzatiladi va aprelning dastlabki un kunligida xavo intensiv turda yuqorilaydi. Aprelda Turtkulda urtacha xarorat 14,3 gradusga, Urganchda 14,1 gradusga, Toshovuzda 13,2 gradus, Muynoqda 8,3 gradusga teng, Nukusda 13,1 gradusni tashkil qiladi (jadval-5). Quyi Amudaryo administrativ rayonida yozda ob-xavo ancha barkaror buladi, issiklik ancha kup. Markaziy Osiyoning boshqa rayonlari kabi yoz oylari juda issik. Iyulda Urganchda urtacha xarorat 28,5 gradus, Turtkulda 28,2 gradus, Toshovuzda 28,1 gradus, Nukusda 27,1 gradus, Muynokda 26,3 gradusga teng. (5-jadval). Vegetatsiya davrida natijali xarorat summasi paxta, sholi va boshka issiksevar ekinlarni ustirish va xosil etishtirishga imkon beradi. Lekin shunday bulsa xam xavo va er tez quriydi, suv oydinlarida, irrigatsiya setlari, kollektor va drenaj sistemalarining bug`lanishi ortadi. Vegetatsiya davrida janubiy zonada 203 kun, shimoliy zonada 183 kun issiq buladi. Bu rayon xududining kenglik buyicha shimoldan janubga qarab chuzilib yotishiga bog`lik vegetatsiya davrida termik resurslardan samarali foydalanish orkali paxta, sholi, makka, juxori, uzum, qovun va issiq sevar ekinlarni ustirish va xosil olish uchun etarli.

Jadval-5

Quyi Amudaryoning agroiklim resurslari

Meteo stantsiya	Xavoning urtacha xarorati			Bir yillik xarorat	Vegetatsiya davri uzoq-gi kun xisda	Natija. xarorat summasi S	Sovuk tushadigan kunlar		Yoginsochinning yillik miqdori, mm
	Yanvar	Aprel	Iyul				Baxorgi oxirgi sana	Kuz sana	
Turtkul	4,9	14,3	28,2	11,8	202	2258	3.04	25.10	82
Urgench	5,1	14,1	28,5	12,5	203	2199	27.04	27.10	96
Toshxovuz	5,3	13,8	28,1	11,6	201	2173	3.04	23.10	86
Nukus	6,9	13,1	27,1	11,6	192	2140	5.04	18.10	108
Chimboy	7,6	11,9	26,0	10,3	188	1961	6.04	12.10	112
Kungirotd	7,1	11,5	28,8	10,5	186	1914	8.04	12.10	109
Muynok	7,4	8,3	26,3	10,6	179	1037	10.03	8.10	111

Janubiy rayonlarda (Urganch, Turtkul, Toshovuz) natijali xaroratning yillik yigindisi 2199-2258 gradus bulsa, shimolda (Muynok) 2037 gradusga teng, ya`ni

Amudaryoning quyilish joyidagi (janub va shimol) rayonlarda paxtachilikni rivojlantirishga buladi. Kup yillik ma`lumotlarga karaganda (1950-1989 yy), janubiy rayonlarda dastlabki baxorgi sovuk tushishi taxminan 1-3 aprelga, shimolda 10-12 aprelga tugri keladi. Aprelning ikkinchi yarmida baxorgi sovuq kutiladi. Bu guza va boshqa qishloq xujalik ekinlari xamda mevali daraxtlar uchun xavfli. Baxorgi sovukning xavfli darajasi uning tushish vakti va muddatiga, shuningdek usimliklarning usish xolatiga bog`liq buladi. Baxorgi sovuq 2-4 kun, ba`zan undan xam kup davom etishi mumkin.

Sovuq kunlar bilan birga yogin-sochin kuproq bulsa, bunday sharoitda yangi nixollar va kurtaklar uchun juda xavfli. Ayrim yillarda shunday xodisalar takrorlanib, qishloq xujalik ekinlarining ancha maydonini qayta ekishni talab qiladi. Erta tushadigan kuzgi sovuk 23-sentyabrda (1996-yil) va eng kech tushadigan sovuk 18-20 sentyabrda (1997-yil) buldi. Quyi Amudaryo xududlarida vegetatsiya davrining xaraterli xususiyati shundan iborat, aprelning dastlabki un kunligida xavo ba`zan issiq, ba`zan sovuq buladi. Ikkinchi un kunlikdan boshlabgina ob-xavo barkarorlashadi. May va avgustda xavoning yuqori xarorati va unga qushimcha sug`orish ishlari qishloq xujalik ekinlarining usib rivojlanishiga yaxshi sharoitlar yaratib beradi.

Chulli qumli rayonlarda xavoning xarorati sug`orib ekiladigan rayonlardan ancha farq qiladi. Shu sababdan yozgi issiq boshlanishi bilan bu erda usimliklarning rivojlanishi tuxtaydi. Amudaryoning quyilish joyidagi kuz fasli oktyabrning ikkinchi un kunligidan oxirigacha qurg`oq va issiq buladi. Oktyabrda shimoliy zonada (Qungirotda) urtacha xarorat 9,65 gradus, janubiy zonada (Urganchda) 11,3 gradus buladi. Qishda arktik sovuq xavo massalarining va sibir antitsiklonlarining ta`sirida, ayniqsa shimoliy zonada xavoning xarorati ancha pasayadi. Yanvarda Muynoqda urtacha xarorat 7,4 gradus, Nukusda 6,9 gradus, Urganchda 5,1 gradusga soviydi. Qish oylarida qor juda kam yogishiga bog`liq dexkonchilik bilan shug`ullanadigan zonalarda er muzlashi 0,3-0,6 metr chukurlikkacha etadi. Janubiy Orolde xukmronlik qiladigan shamol sharqiy shamol xisoblanadi. Shamolning urtacha tezligi janubiy zonada sekundiga 8-9 metr,

shimoliy zonada sekundiga 4-5 metr ga teng. Baxor oylarida sug`orib ekiladigan zonalarda shamolning tezligi sekundiga 10-15 metr ga etadi.

Janubiy Orol xududi Markaziy Osiyodagi eng qurg`oq rayonlardan hisoblanadi. Yogin-sochinning yillik miqdori 79-100 mm ga etadi. Bu shu rayondagi bug`lanish jarayonidan 18-19 marta kam. Xar mavsumda yogin-sochin miqdori xar-xil buladi. Yil davomidagi yogin-sochinning 40% i deyarli baxorda, 20-25%i kuzda, 30-35%i qishda, 10%i esa yoz oylarida yogadi. Shu sababdan yogin-sochin qishloq xujalik ekinlarining usib rivojlanishiga unchalik ta`sir qilmaydi. Ularni ustirib tarbiyalash bilan bevosita bog`liq. Baxorgi yogingarchilik va ochiq xavo dexqonchilikda qotqoloq paydo bulishiga olib keladi. Bu nixollarning usib chiqishini kiyinlashtiradi. Juda issiq va qurg`oq iqlim sharoitida ekiladigan dexqonchilik uchun xavoning namligi katta ahamiyatga ega. Janubiy Orol xududida xavoning namligi Orol dengizining, Amudaryo sug`orish kanallarining, kollektor-drenaj sistemalari, kullar va sug`orib ekiladigan ekinlar ta`sirida paydo buladi. Xavoning urtacha yillik namligi shimoliy zonada 63-67%, janubda 53-60% atrofida. Qishda xavo ancha nam bulib, 70-85% atrofida buladi. Xavoning yuqori xarorati xaddan tashqari bug`lanish va zax suvlarning yaqin bulishi tuzning intensiv yigilishiga olib keladi. Bu sug`orib ekiladigan ekin maydonlarining meliorativ xolatini saqlash uchun kollektor-drenaj setlarini qurishni talab qiladi.

b/. Quyi Amudaryoning suv resurslari va irrigatsiya tarmoqlariga tarif hamda undan qishloq xujaligi sohalarida aqilona foydalanish yo`llari

Quyi Amudaryoning administrativ rayonlarining asosiy suv manbai Amudaryo xisoblanadi. Amudaryo dunyodagi eng baland Xindikush va Pomir tog`laridan boshlanib, Vaxandaryo va Panj kushilganidan keyin uzining 82-83% yillik suv oqimini paydo qiladi. Kup yillik ma`lumotlarga qaraganda Amudaryoning yillik suv oqimi uning urta va quyi bulimida 38-40 mlrd kub metrni tashkil etib, shundan xar yil sayin sug`orish uchun 20-21 mlrd kub metr sarf etiladi. Yillik sug`orishning qolgan qismi Orol dengizi va Amudaryo del`tasida

joylashgan kullarni suv bilan ta'minlashga, ya'ni bir qismi bug'lanishga sarf buladi.

Sug'orma dexqonchilik uchun sarflanadigan 20-21 mlrd kub metr suvning 9 mlrd. kub metrga yaqini Qoraqalpog'istonning dexqonchilik sohalarida foydalaniladi. Janubiy Orolning suv manbalari qishloq xujaligi ishlab chiqarishni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababdan Quyi Amudaryo administrativ rayonlari sharoitida qishloq xujaligini rivojlantirishning asosiy sabablaridan biri erlarni sug'orish va melioratsiya soxalarini qayta ta'mirlashni talab etadi. Shu sababdan Amudaryo xavzasida irrigatsiyani rivojlantirish buyicha amalga oshirilgan amaliy tadbirlar va xokimiyat tomonidan chiqarilgan qarorlar asosida Janubiy Orolida sug'orma dexqonchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berildi.

Xozirgi vaqtda bu zonada 1011,2 ming ga er sug'orib ekiladi. Bu erlarda paxta, galla, sabzavot va poliz ekinlari, bogdorchilik va uzumchilik, tut daraxtlari ustiriladi. Keyingi yillarda amalga oshirilgan katta suv xujalik dasturlariga mos, Quyi Amudaryoning administrativ rayonlarida xalq xujaligi soxalarini, shu jumladan qishloq xujalik ishlab chiqarishini rivojlantirishining keng rejalari ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Quyi Amudaryoning administrativ rayonlarida sug'orma dexqonchilik soxalarini rivojlantirish uchun yirik suv xujalik ishlari bitkazildi. Magistral sug'orish kanallari foydalanishga berildi. Avvalgi chigir bilan sug'orib dexqonchilik qiladigan uzbek, qoraqalpoq va turkman xalqi injenerlik tipdagi magistral kanallarga ega buldi. Ularning suv beruvchi sagalari oddiy tipdan injenerlik tipda tuzilgan soorujenalarga ega buldi. Avvalgi toshdan, yogochdan, somon va tuprokdan qilingan sag'alar mexanik regulyatorlar bilan almashtirildi.

Eskirib qolgan sug'orish inshootlari, kanallar yangidan barpo qilindi va beton konstruktsiyadan iborat tarnovlarga ega buldi.

Quyi Amudaryoning administrativ rayonlarida juda qadimdan foydalanib kelinayotgan kupgina sug'orish setlari yirik-yirik magistral kanallar bilan almashtirildi va sug'orma dexqonchilik talablariga javob beradigan xolda yangidan qurildi. Sug'orish setlaridan foydalanishni tartibga solish, sug'orish sistemalarining

tarnovlarini qayta qurish, ularni birlashtirish yangidan qurilgan Qizketgan, Suenli, Paxtaarna, Toshsga, Qilichniyozboy, Mangitarna, Kipchokarna, Oktyabrarna, Urgencharna, Shovot, Shoxsanam, Sovetyop, Jumabaysaga, Gazovot kanallarining foydalanish koefitsenti yaxshilandi. Bu asosan irrigatsiya va melioratsiya ishlari xisoblanib, davlat tomonidan chiqarilgan xarajatlarning ancha kupayishiga sabab buldi. Faqatgina 1965-95 yillarda Quyi Amudaryoning administrativ rayonlarida irrigatsiya va melioratsiya ishlariga sarflangan mablag`lar 19,7 mln. sumdan 434,2 mln. sumga yoki deyarli 4 marta kupaydi. Suv xujaligini rivojlantirish uchun kup miqdorda mablag` ajratish, injenerlik tipda irrigatsiya sistemalarini tuzishga va kelajakda sug`orib ekiladigan dexqonchilikning mustaxkam moddiy bazasining asosini yaratishda xizmat qiladi.

Bu mablag`larning kupchiligi melioratsiya ishlarida foydalanilmokda. Xozirgi vaqtda kollektor-drenajlarning uzunligi 20,4 ming km ga etdi, yoki xar bir gektar ekin maydoniga 23-37 m ga tug`ri keladi.

Quyi Amudaryo xududida er osti grunt suvlarining minerallashuvi va tuproqning shurlanishi Markaziy Osiyoning boshka rayonlariga nisbatan ancha yuqori. Bunday xolat kollektor-drenaj tarmoqlari qurilishining orqada qolishining va mavjud drenajlardan nourin foydalanish natijasida paydo bulmoqda. er osti grunt suvlarini sug`arish zonasining ozgina vaqt mobaynida tez chiqarib turishi uchun 1 ga ekin maydoniga kamida 40-45 metrdan kollektor-drenaj tarmoqlari qazilishi lozim. Lekin, Quyi Amudaryo zonasida meliorativ tarmoqlarning uzunligi xozircha gektariga faqat 27-29 metrdan oshmoydi. Bulardan tashqari xozirgi vaqtda ishlab turgan meliorativ tarmoqlarning ancha qismini qum bosib, kollektorlarni ishdan chiqarmoqda, bu uz navbatida tuproq qatlamining xanuz tulik urganilmaganligi natijasida ruy bermoqda. Natijada xatto yaqinda foydalanishga berilgan kollektorni qayta ta`mirlashga tug`ri kelmoqda.

Yangi erlarni uzlashtirish va barcha ekin maydonlarini qayta tartibga keltirish buyicha oldimizda turgan katta vazifalarni amalga oshirish tadbirlari birinchi navbatda fan va tajribalarga asoslanib ishlash sababli proektlarga bevosita bog`lik. Shunday qilib, Quyi Amudaryoda joylashgan barcha irrigatsiya sistemalari

Tuyamuyin va Taxiatosh gidrouzellaridan suv oladi va qishloq xujalik tarmoqlarini suv bilan ta`minlaydi. Lekin, qishloq xujalik maxsulotlariga bulgan talabning ortishiga bog`lik suvdan unumli foydalanish va sug`orish sistemalarining foydali koeffitsentini yuqorilatish masalalarini keltirib chiqarmoqda. Bu birinchidan sug`orib ekiladigan ekin maydonlarining ortishiga bog`lik ekin maydonlarining shurlanishiga, maxsus suvdan foydalanish rejimini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shunga muvofiq sug`orish sistemalariga iktisodiy-geografik jixatdan taxlil qilish va sug`orib ekiladigan dexqonchilikning samaradorligini orttirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanishi zarur. Sababi kupchilik sug`orish sistemalaridan foydalanish koeffitsenti 0,56 dan ortmaydi. Shu sababdan sug`orish sistemalarini uzoq oralikka etkazish bilan birga ularning yokalarini betonlash va izolenta bilan ta`minlash katta axamiyatga ega. Lekin, Quyi Amudaryoning administrativ rayonlarida betosh tushalغان sug`orish sistemalari kam.

Xozirgi vaqtda Quyi Amudaryoda 14 dan ortiq yirik sug`orish sistemalari qurilgan, shulardan 9 tasi Amudaryoning chap qirg`og`ida, qolgan 5 tasi daryoning ung qirg`og`gida ishlab turibdi. Amudaryoning chap tomonida joylashgan yirik irrigatsiya sistemalariga Toshsga, Pitnak-Arna, Urgench-Arna, Qilichniyozboy, Qipchok-Buzsuv, Sovet-yap, Suenli, Ravshan va Muynoq kanallari, ung tomonida joylashgan sug`orish sistemalariga Paxta-Arna, Nayman, Beshtam, Nazarxan va Qizketgan kanallari kiradi. Yuqoridagi Amudaryoning chap tomonidagi sug`orish sistemalarining sug`oradigan ekin maydonlari 544,2 ming ga ni tashqil etadi. Shu zonada respublikalararo sug`orish sistemalarining uzunligi 350 km. ga yaqin. Shulardan faqatgina Toshsga sug`orish sistemasi Xorazm va Toshxovuz viloyatlari xududining 200 ming ga ekin maydonini suv bilan ta`minlaydi. Sagada sekundiga suv utkazish imkoniyati 280 kub metr ga teng. Sug`orish sistemalarining xar biriga quyidagicha iqtisodiy-geografik ta`rif berishga buladi.

Pitnak-Arna-1936-yili ishga tushirildi. Kanalning uzunligi 6 km. ga teng. Bu sistema qadimgi uyik bosib yotgan bir necha kichkina kanallarni birlashtirish yuli bilan qurildi, bunga misol qilib, Pitnak stantsiyasi yonidagi qurib qolgan

kanallarning 17 uzanini aytishga buladi. Pitnak-Arnaning sagasiga yirik regulyator urnatilib, qayta ta`mirlandi. Uning maksimal suv ajratishi sekundiga 5 kub metrga teng. Pitnak-Arnaga qushimcha 5 saga urnatilib, ularning xar birining suv taqsimlash imkoni sekundiga 0,8-2 kub metrga etadi. Kanalning foydali ish koeffitsenti 0,57.

Toshsaga- bu janubiy Xorazmda eng yirik sug`orish sistemasi bulib, u Toshsaga magistral kanali va yana qushimcha Shovot, Polvon, Gozovot tarmoqlaridan iborat. Toshsaga magistral kanali 1940-yillari Xorazmda ishlab turgan eski Polvon, Gozovot, Shovot kanallarini birlashtirish yuli bilan qurildi. Amudaryo suvining bekarorligiga bog`liq, Toshsaga sistemasining sagasi uchta asosiy soorujenie asosida tuzildi. Ularga sekundiga suv taqsimlash imkoni 202,5 kub metrga teng. Eski Toshsaga sagasi sekundiga suv taqsimlash imkoni 89 kub metrlik yangi Toshsagaga qushimcha suv utkazadigan sekundiga suv utkazish imkoniyati 30-210 kub metrlik Tuyamuyin kanali xisoblanadi. Toshsaga sistemasiga suv kuprok talab qilinadigan davrdagi talabni xisobga olib, eski qushimcha suv etkazib beradigan Bayramsaga, Mashinjargan, Qaramazisaga kanallari xam saklangan. Bu baxorgi yozgi davrda qishloq xujalik ekinlarini chayib sug`orish davrlarda foydalaniladi. Kanalning boshlanish joyini loykadan saqlash maqsadida ikki tomondan 15-20 metr balandlikda tozalash ishlari yuritiladi. «Xorazm del`talik boshkarma» muassasasi ma`lumotlariga kura, ayrim vaqtlarda 2000 kub metr tuproq qazish ishlari amalga oshiriladi. Toshsaga kanala uzining 34 chi km da Shovot, Polvon, Gozovot shoxobchalariga bulinadi va shu erda sekundiga suv utkazish imkoniyati 8 kub metr bulgan Xonka kanali boshlanadi. Shovot kanali Toshsagadan boshlangan erda unga 1 metr yuqoridan quyadigan uzunligi 14,6 km bulgan qushimcha suv etkazuvchi Bayramsaga, Mashinjargan, Karamazisaga kelib qushiladi va Shovot kanali 150 km masofaga suv etkazib beradi. 42 chi km. da Shovot kanali Paxtakor, Xudoychi, Kasayop, Dovdanyop va Yarmish kanallariga suv bulib beradi. Bu Toshovuz viloyati xujaliklarini sug`orishga ishlatiladi. Shovot kanali 78 chi km. da suv yguvchi soorujenie yordamida Qishloqyop, Abdolyop, Kamishkon kanallariga 99 chi km da Toza-

Garrov, Kunya-Garrov, Gunya-Yarmish kanallariga suv beradi. Qolgan ortiqcha suv Dovdan kollektoriga yuboriladi. Shovot kanalining eng sunggi 126 chi km. da xujaliklararo Kazaxyop kanali suv oladi.

Polvon-Gozovot-sug`orish sistemasi respublikalararo axamiyatga ega bulib, uning uzunligi 34 km. Bu kanal avvalgi Povon kanali asosida 1940 yillarda qurilgan. Polvon-Gozovod kanali Kushkupir, Xiva tumanlarini va Toshovuz viloyatining paxta rayonlarini suv bilan ta`minlaydi. U 67 km.lik masofada tugaydi. 1969 yili Polvon-Gozovot kanalining boshlanish joyida yangi qurilma urnatildi va sekundiga suv utkazish imkoniyati 12 kub metr ga oshirildi. Bu Gozovot (47 metr kub sekund), Polvon (50 m kub s) va katta Keneges (16 m kub s) kanallariga suv taqsimlashga yul ochadi. Shu erdan boshlab Polvon kanali 18 km masofaga suv etkazib, sekundiga suv utkazish imkoniyati 10 kub metr bulgan Okyop (3 metr kub s), Pirnaxoz(1metr kub s), Pishkanak (2metr kub s), Xorasan (4metr kub s), Gaukyop kanallariga suv beradi.

Gazovot sugorish sistemasi-1940 yilda qurilgan, uzunligi 88 km. ga teng. Kanal 36 km. masofada suv oqimini tezlatish maqsadida 1,5 metr balandlikdan maxsus uskunalar bilan ta`minlangan va Uzbekyop, Tuyachi, Oxunboboev nomli tarmoqlarga bulinadi. Turkmaniston xududida 46,7 chi km. da suv yigadigan uskunalar orqali Qorauzak, Tozayop kanallariga suv etkazib beradi va Taxta rayonining xujaliklarini sug`oradi.

Respublikalararo axamiyatga ega Qilichniyozboy sug`orish sistemasi_ 59,2 ming gektar maydonga suv etkazib, Xorazm viloyatidan 18 ming gektar, Qoraqalpog`istondan 15 ming gektar va Toshxovuz viloyatidan 26 ming gektar ekin maydonlarini suv bilan ta`minlaydi. Bu sistema 1939-1942 yillarda qadimgi uzanidan Amudaryodan boshlanadigan Qilichniyozboy, Toksonarna, Yangiyop, Vaziryop va Qorakuz kanallarini birlashtirish orqali amalga oshirildi va boshlanish joyida injenerlik usuldagi asosiy regulyator urnatildi. Bu sekundiga 120 kub metr suv utkazish imkonini beradi.

Qilichniyozboy sug`orish sistemasi 7 chi km. masofaga etganda ikki shoxobchaga bulinadi. Birinchisi sekundiga 70 metr kub suv utkazish imkoniga

ega Kilichniyozboy, ikkinchisi sekundiga 37,5 kub metr suv utkazish imkoniga ega Gurlan shoxobchasi xisoblanadi. Kanal 43 chi km. masofasida Turkmaniston bilan chegarada maxsus suv saqlagich uskuna bilan ta`minlangan va shu erdan boshlab Turkmaniston xududini suv bilan ta`minlaydi. 1965 yillarda Qilichniyozboy sug`orish sistemasining boshlanish joyiga urnatilgan maxsus qurilmani degish yuvib ketishiga bog`liq, 1965 yilda Turkmengiporovodxozi loyixasi asosida Tozabas soorujeniesi qurildi va sekundiga 120 kub metr suv utkazish imkoniyatini berdi. Bu faqat Xorazm va Qoraqalpog`istonning qishloq xujalik tarmoqlarinigina suv bilan ta`minlab quymasdan, Toshovuz viloyatiga qarashli Boldimsiz va Gubadag tumanlariga sistemali turda suv etkazib beradigan buldi.

Sovetyop sug`orish sistemasi-Toshovuz viloyatining Kuna Urganch, Turkmanboshi tumanlarini suv bilan ta`minlab, sekundiga 30 kub metr suv utkazish imkoniyatiga ega. Yillik suv oqimi 1 mlrd. kub metr, bu sistema Toshovuz viloyatining shimoli-garbida joylashgan ikki tuman xududidan 92 ming ga. ga yaqin ekin maydonlarini suv bilan ta`minlaydi.

Xulosa shuki, Janubiy Orolning administrativ rayonlari, shu jumladan Qoraqalpog`iston Respublikasi kup er resurslariga ega. Uning xajmi uch administrativ tuman xududida 24,5 mln. ga ni tashkil etsa, shundan Amudaryo del`tasidagi xududlar 12,1 mln. ga ga teng. Lekin bu qishloq xujaligining ayniqsa, sug`orma dexqonchilik soxalariga, mol chorvachiligi va em-xashak etishtirish uchun yaroqli erlar tula uzlashtirilmayapti. Shuning xisobidan ekin ekishda foydalanilmayotgan erlar 1 mln. gekterni gina tashkil etadi. Bu uz navbatida suv resurslaridan oqilona foydalanish va qushimcha suv manbalarini topish kun tartibidagi asosiy masalalar qatorida turishi lozim.

Suenli sugorish sistemasi Amudaryoning chap kirgogida joylashgan Xujayli, Shumanay, Qanlikul, Qung`irot va Muynoq tumanlarini suv bilan ta`minlab, yil sayin 130 gekardan ortiq ekin maydonini sug`orishga sharoit yaratmoqda.

Suenli magistral sug`orish kanali Amudaryoning chap tomonida 2-5 km masofada oqib utgandan keyin uz yulida bir necha yangi qurilgan kanallarni xam

suv bilan ta`minlaydi. 1940 yildan 1974 yilgacha kanal injenerlik usulda yunaltirilgan regulyator orqali 1974 yildan boshlab Taxiatosh gidrouzeli ishga tushishi bilan tula injenerlik usulda suv bilan ta`minlashga utdi. Suenli kanali 42 km. masofagacha 1940 yildan boshlab ta`mirlandi, shu masofadan kuyirokda qazilgan Shumanay kanaliga xam suv beradigan buldi. 1971 yildan boshlab, Suenli kanaliga parallel qilib ikkinchi saga olindi, bu Taxiatosh qisnogidan quyirokda Amudaryoning chap tomoni buylab oqib kup suv bilan ta`minlaydigan buldi. Natijada Shumanay zonasidan keng mikdordagi ekin maydonlari qishloq xujaligida foydalanishga berildi. «Uzgidrovodxoz» muassasasining dasturida kursatilgan rejaga kura Suenli kanalining suv sarfi 250 metr kub sekundni tashqil etadi. Shunday qilib, keyingi ma`lumotlarga kura Suenli kanalining suv utkazish imkoniyati kupaydi.

Qoraqalpog`istonning janubiy tumanlarini sug`oradigan ***Paxtaarna sug`orish sistemasi*** Amudaryoning ung tarafida joylashgan Turtkul, Ellikkal`a, Beruniy tumanlari xududidan 79,7 ming ga ekin maydonlarini suv bilan ta`minlashni, kelajakda Paxtaarna kanali ta`sir qiladigan zonada sug`orib ekiladigan ekin maydonlari 145 ming gektarga kupaytiriladi. Shunday qilib, kelgusida Janubiy zona buyicha umumiy ekin maydoni 182 ming ga. ga kupayadigan buladi. Xisoblashlarga kura 1970 yildan 1995 yilgacha bulgan oralikda sug`orib ekiladigan maydon Paxtaarna va boshqa mayda kanallar sistemasi buyicha 83,8% ga kupaydi va suvdan foydalanish darajasi yaxshilandi. Lekin, Qoraqalpog`istonning Janubiy zonasi Ellikkal`a, Janbaskala, Kirkkizobod massivlari kelajakda sug`orma dexqonchilikni rivojlantarish uchun katta imkoniyatga ega. Shunga muvofik Janubiy zonaning sug`orish sistemalari buyicha Amudaryodan oladigan suvning sarfini kupaytirish katta axamiyatga ega. Shunga mos Paxtaarna sug`orish sistemasi bir qancha yaxshilandi. Daryodan olinadigan suv sarfi 70 metr kub sekunddan 100 metr kub sekundga kupaydi.

Kizketgan magistral kanali Qoraqalpog`istondagi eng yirik sug`orish sistemalari qatoriga kiradi va Nukus, Chimboy, Korauzak, Kegeyli, Taxtakupir va Buzatov tumanlari xududining 170 ming gektardan ortiq ekin maydonlarini suv

bilan ta`minlaydi. Qizketgan sug`orish sistemasi zonasida paxta maydonlarining kamayishi shu zonada joylashgan ayrim tumanlarda tuligi bilan g`allachilikka ixtisoslashuviga bog`liq buldi. Kelajakda sug`orib ekiladigan maydonlarning kupayishi asosan Amudaryo suvidan tulaligicha dexqonchilikda foydalanish rejalashtirilib, ma`lumotlarga kura bu zonada ekin maydoni 247 ming gektarga etkaziladi va sug`orish sistemalaridan foydalanish koeffitsentini oshirish va KZI ni iloji boricha takomillashtirish nazarda tutilmoqda.

Qizketgan kanali 1974 yillargacha plotinasiz ishladi. 1974 yildan boshlab Taxiatosh gidrouzeli qurilishi bilan injenerlik usulga utkazildi. Keyingi yillarda uzunligi 9 km. lik Kattagar kanaliga Kizketgan kanali tutashtirildi. Bu ikki tarmoq Qizketgan kanali sistemasi buyicha suvdan foydalanishni yaxshilashga yul ochdi.

Kizketgan sug`orish sistemasinang ung tomonidagi shoxobchasi Kuanishjarma degan nom bilan 83 km. masofani kesib utib, Qizilqum etagi orqali Qorauzak, Taztakupir va Kegeyli tumanlarining ayrim qismlarini suv bilan ta`minlaydi. Taxiatosh gidrouzeli ishga tushishi bilan kanalning suv sarfi dastlab sekundiga 245 kub metrni tashqil qildi, kelajakda esa 315 metr kub sekundga kupayadi. Bu loyixa eski yordamchi kanal bilan Kegeyli kanalini tutashtiradigan buldi. Shu va boshqa tadbirlar Qizketgan sug`orish sistemasi zonasida joylashgan xujaliklarning erdan foydalanish samaradorligini (KZI) oshirishga va sarf qilinayotgan suvni, unumdarli foydalanish orqali ekin maydonlarini kupaytirish va yiliga olinadigan qishloq xujalik maxsulotlarining miqdorini kupaytirishga imkon yaratishi so`zsiz.

1.3. Quyi Amudaryo ma`muri rayonlarida mexnatning rayonaro taksimlanishi va uning agrosanoat majmuasining shakillanishi va rivojlanishiga tasiri

Quyi Amudaryo regionida joylashgan Qoraqalpog`iston Respublikasi, Xorazm viloyati mexnatning rayonlararo taqsimlanishida yirik qishloq xujalik regionlar qatorida paxta, g`alla, qorakul terisi, jun, pilla maxsuloti, beda urugi va xar xil qovun navlarini etishtiradigan rayonlardan xisoblanadi. Xalq xujuligi soxalarining ishlab chiqarish majmuasidagi bu asosiy yunalish 1952 yillardan boshlab, Quyi

Amudaryoning transport iqtisodiy aloqalari yaxshi yulga quyilgandan keyin rivojlana boshladi. Qishloq xujuligi soxalarining ishlab chiqarish bazasi kengaytirildi, natijada paxtachilik va g`allachilik dexqonchilik-ning eng yirik ixtisoslashgan soxasiga aylan ochdi. Xozir rayon Markaziy Osiyo davlatlarida etishtirilgan paxta maxsulotlarining 14,7% dan ortigini, pillaning 8% ini, qorakul terisining 3,4%ini, sholining esa 50%ini, qoramol bosh sonining13%ini, sut maxsulotlarining 11,2% ga ishlab chikaradigan buldi.

Quyi Amudaryo regionni sug`orma dexqonchilik soxalarini, shuning ichida paxtachilik va sholichilik soxalarini rivojlantirish uchun katta tabiiy iqtisodiy resurs manbalariga ega. Regionning er-suv resurslari, asosan vegetatsiya davridagi serkuyosh kunlar qishloq xujalik ekinlarining tulik pishib etishishiga va undan mul xosil olishga imkoniyat beradi. Shu bois, iqtisodiy rayon xujaligi rivojlanishini va kelajagini belgilashda ishlab chiqarilgan maxsulotning tovarlik darajasiga e`tibor berish katta axamiyatga ega. Sababi tovarlik axamiyatga ega soxalar mexnatning rayonlararo taqsimlanishida qatnashib, mintaqada ishlab chiqarish soxalarining ixtisoslashish darajasini ham belgilaydi (jadval-6).

Jadval-6

Qishloq xujalik maxsulotlarini jon boshiga bulganda Quyi Amudaryo rayonlarining nisbiy ulushi

Qishloq xujaligi maxsulotlarining turlari	MDX davlat. ri buyicha urtacha	Jumladan		Shundan		Janubiy Orol buyicha kursat-kichlarga solishtir-ganda % xisobida	
		O`zbekiston Res-si	Quyi Amudaryo adm. rayon.b. cha, jami				
				Xorazm vil. i	KR -si	MDX	RO`z
Paxta,kg	29,0	26,6	512	60,6	317	17,7 h	19,3 h
Galla,kg	754	11,1	152	137	337	20,2	16,9
Shundan: Sholi	7,8	31,2	162,7	128	310	23,2 h	5,2 h
Gusht,kg	65	21,6	20,8	24,6	24,0	32	96,3
Sut,kg	367	143	135	214	139	36,8	94,4
Jun,kg	1,6	1,7	1,7	1,9	1,8	106,3	100
Tuxum, dona	289	120	83	119	76	28,7	69,2
Sabzavod,kg	106	139,4	57	85	49	53,8	40,9

Jadvalda berilgan ma`lumotlarga kura Quyi Amudaryo administrativ rayonlari er resurslari, ayniksa kata hajmdagi yaylov fondiga ega bulib, bu bir tomondan paxtachilikka ixtisoslashgan rayon ekanligidan kurinib turibdi. Masalan,

jon boshiga paxta etishtirishda MDX davlatlariga nisbatan 11 xissa, g`olla etishtirishda 16 xissa, jun etishtirish buyicha 1,2 xissa yukori. Lekin, kota xajimda yaylov fondini egallosa xam ko`p gina qishloq xujuligi maxsulotlarining xajmi buyicha, asosan gusht, sut, tuxum, poliz maxsulotlarini jon boshiga bulganda juda orqada turadi.

Demak, bu Quyi Amudaryo regionida ishlab chikarish soxalarida xazirchaqishloq xo`jaligi aylanishiga kushilmagan xaxiralarning kup ekanligini kursatadi. Rayonda kuy chorvachiligini rivojlantirish buyicha imkoniyatlar bulsa xam, bu soxani rivojlantirishda tadbirlar uzilishga tushib kolgani kuzatilmokda. Natijada jun va korakul terisini etishtirish buyicha xam kursatkichlar past darajada. Xozir rayonda taxminan 9,1 mln. ga tadqiq qilingan yaylovlarning bulishiga qaramasdan, mol chorvachiligi maxsulotlarini etishtirish xamon past darajada. Quyi Amudaryoning administrativ rayonlari Markaziy Osiyodagi eng yirik qishloq xujalik zonasi bulsa xam, tukimachilik va oziq-ovqat sanoati soxalarida ishlab chiqarilgan maxsulotlarini jon boshiga bulganda xam kupchilik rayonlardan orqada turadi. Shuning uchun Quyi Amudaryoda er-suv resurslari samarali foydalana turib, qishloq xujaligi soxalarini keng rivojlantirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy vazifalar qatoriga kiradi. Buning uchun avvalo qishloq xujaligi ishlab chikarishida tashkiliy masalalarni echish va rayonning er-suv resurslaridan samarali foydalanish yuli bilan qishloq xujaligi maxsulotlarini kup mikdorda ishlab chiqarish bosh vazifalar qatoridan joy olishi zarur.

B) Paxtachilik qishloq xujuligining eng yirik ixtisoslashgan soxasi. Quyi Amudaryoning administrativ rayonlari uzoq davrlardan buyon paxtachilik bilan shug`ullanadi. Lekin paxtachilikning yuqori sur`atda rivojlanishi ikkinchi jaxon urushidan keyin boshlandi.

1913 yillarda Quyi Amudaryoda 28 ming ga. erga paxta ekilib, bu barcha ekin maydonining 7,8% inigina tashkil qilar edi. 1917 yillarda Rossiyada oktyabr` inqilobi yuz berishi bilan Rossiya xukumatining Markaziy Osiyoga shuning ichida Quyi Amudaryoga talabi kuchaydi. Bu asosan Turkistonni asosiy paxtachilik respublikalariga aylantirish buyicha qabul qilingan qarordan keyin ayniqsa

kuchaydi. Shunday qilib, avvalgi markazlashgan xukumat qabul qilgan birinchi besh yilliklardayok Janubiy Orolida paxtachilik soxalari qayta tiklandi va bu soxani rivojlantirish buyicha vazifalar belgilandi. Shunday qilib, 1940 yillarda paxtaning ekin maydoni 195,6 ming gektarga etkazildi. Bu barcha ekin maydonining 52,4%i degan suz.

korxonalarini qayta tamirlashga bog`liq Chimboyda, Xujalida, Beruniyda may zavodlari, Xujali va Nukusda go`sht kombinati, Muynokda baliq zavodlari, nukusda makaron va konditer fabrikalari foydalanishga berildi. Shunday qilib, respublikada oziq-ovqat sanoatining asosiy ishlab chiqarish bazasi kengaytirildi va ularda mahsulot ishlab chiqaradigan yangi quvvatliklar tashkil etildi. Bu yilga mahsulot etishtirishning hajmini orttirishga yo`l achmakda. Masalan, agar 2000-yillarda Qoraqalpog`iston bo`yicha yiliga 8 ming tonnadan o`simlik yog`i, 6,7 ming tonna go`sht mahsulotlari ishlab chiqariladigan bo`lsa, xazirgi kunlarga kelib respublikada yiliga 147 ming tonna o`simlik yog`i, 16 ming tonna go`sht mahsulotlari, 59-61 ming tonna sut mahsulotlari, 80,3 ming tonna un, 452 ming DK./litr vino mahsulotlari ishlab chiqariladigan bo`ldi. Lekin, bu ko`rsatkichlar axalining o`sib barayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga degan talabini qanoatlandirmaydi.

Hozirgi vaqtda respublika oziq-ovqat sanoatida kechiktirilmaydigan salbiy holatlar payda bo`ldi. Bular katariga oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish quvvatliklari to`liq foydalanishning uzilishga tushichi misal buladi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish (quvvatlardan) foydalanishning pasayishi barshasidan burym, uning xomashyo bazasining deyarli kamayishiga bog`liq. Masalan, statistik ma`lumot bo`yicha bugingi kunlarda Qoraqalpog`istonning yog` zavodlarida ishlab chiqarish kuvvatlaridan foydalanish hammasi bo`lib 70% tashkil etsa, bu korsatkish Shimbay yog` zavodida esa 67,0%-dan artmaydi.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish kuvvatlardan foydalanishning darajasi respublikaning boshqa korxonalarida ham yaxshi emas. Masalan, hozirgi ma`lumotlarga qaraganda Nukus sut zavodida xomashyo bazasining etishmasligidan ishlab chiqarish kuvvatlari 80%-ga, go`sht kombinatida 73%-ga foydalnilsa, Beruniy yog` zavodida ishlab chiqarish kuchlaridan foydalanish 63-65%-ni, Chimboy yog` zavodi 89%-ni tashkil etadi. Respublika bo`yicha xomashyo resurslarining etishmasligiga bog`liq ishlab chiqarish kuvvatlardan

foydalanishning darajasi deyarli pasaymokka va yiliga hammasi bo`lib 15-17 ming tonna yog` mahsulotlari tayyorlanmoqda.

Ishlab chiqarish kuvvatlardan to`la foydalanmasligi natijasida faqat 2008-yili Qoraqalpog`iston bo`yicha engil sanoat saxalarida 7 mlrd.56mln sum miqdorda mahsulot kam ishlab chiqarildi. Bundan boshqa oziq-ovqat sanoatida ishlovchilarning ish vaqtidan foydalanish grafigida ham kamchiliklar uchraydi. Masalan, statistik ma`lumotga kura Chimboy yog` zavodida yil mavaynida 20 odam ishga yangidan qabul qilingan bolsa, 41 odam ishdan chiqarilgan. Ushbu kalatlar Beruniy yog` zavodida esa 26/34 kishini tashkil etadi. Shularning oqibatida sanoat saxalarida yiliga respublika bo`yicha atiga 42,3 mlrd. sum miqdordagi qunga ega engil sanoat tovarlari tayyorlanmayabdi. Natijada Qoraqalpog`iston bo`yicha iste`mol tovarlarini tayyorlash, ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash xajimi O`zbekistonda chiqariladigan illik mahsulotning faqat 2,7-3,2%-ni tashkil etadi xalos. Natijada axolii Jan bashida 39,2 ming Sum mugdarida istimol mollari ishlab chikariladi. Natural formada chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining hajmi O`zbekistonga nisbatan go`sht bo`yicha 4,5%-ini, mol yog`i bo`yicha 5%-ini, sut mahsulotlari bo`yicha 2,3%-ini tashkil etadi. Bu haqiqatdan ham achinarli hol. Korakalpakstan qishloq xo`jalikka ixtisoslashgan mintaka bo`lsa ham, yiliga aholi jon boshiga 5 kg kartoshka, 48,8 kg poliz ekinlari, 34 kg tarvuz va qovun mahsulotlari, 9,9 kg meva, so`yilgan hoida 25,9 kg go`sht mahsulotlari, 136-138 kg sut, 76-80 dona tuxum etishtirish darajasiga egamiz. Bu oziq-ovqat sanoatida yuz bergan og`ir sharoitlardan qutulish uchun hammasidan oldin tarmoqning xomashyo bazasini kengaytirishga alohida e`tibor berish kerak. Masalan, Qoraqalpog`istonning yog` zavodlarida mahsulot etishtirishning pasayishi, yiliga tayyorlanadigan paxta xasilining kamayishi natijasida bulyapti. Shu boys ishlab turgan kuvvatlardan to`liq foydalanish uchun eng kam deganda yiliga 300-310 ming tonna miqdorida paxta xamashesini etishtirishimiz zarur. Buning uchun qishloq xo`jaligining Yangi tarkibiga zararsiz paxtaning ekin maydoni 150 ming gektarga etkazishimiz shart. Shuning 76-89 ming gektarini janubiy rayonlarida ekib xasildarlikni 29,7 tsentnerga etkazsak, yiliga 264-270

ming tonna miqdoridagi paxta etishtirishga bo`ladi. Bu birinchidan axialini o`simlik yog`i bilan tamiynlashni hal qilsa, ikkinchidan chorvachilik tarmoqlarini belokli em hashak konsentratlari bilan ta`minlashga yo`l ochadi. Qoraqalpog`istonda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishini ta`miynlash uchun, mol chorvachiligi saxalarinig samoradarligini ashirishga alohida e`tibor berish kerak. Yuqorida, ta`qidlaganimizdek, mollardan olinadigan sut, go`sht va boshqa ham mahsulotlarning pasayishga bog`liq respublikaning go`sht va sut mahsulotlarini qayta ishlab chiqaradigan korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishning darajasi deyarli pasayib ketmoqda. Shuning uchun sug`ormali dehqonchilik zonalarining hisobidan, mustahkam em-xashak bazasini tuzib, qora mollarning bosh sonini ko`paytirish va tarkibidasog`in sigirlarning nisbiy hissasini 39-45%-gacha yuqorilatish zarur. Sababi, bizda hozirgi vaqtda sog`in mollarning hissasi podaning tarkibida eng ko`p deganda 29-32%-dan ortmaydi.

Qoraqalpog`iston sharoitida oziq-ovqat sanoatining rivojlanishini ta`minlash va aholiga iste`mol uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ko`paytirishga ko`p rezervlar mavjud. Bular katariga kulay vegetatsiya davridagi yuqori haroratning yig`indisi, uzoq muddatga so`ziladigan quyoshli kunlar, qovun, tarvuz, meva va poliz ekinlaridan ko`p xasil olishga mumkinchilik beradi. Lekin, shunga qaramasdan, hozir respublikaning dehqonchilikda foydalanadigan ekin maydonlarining tarkibida yuqorida ko`rsatilgan barcha ekin uchun ajratilgan maydonlar 3,2-4%-dan ortmaydi. Bu ma`lum darajada aholining qishloq xo`jalik mahsulotlariga degan talabini qanoatlandirishga, ayniqsa oziq-ovqat sanoatida hozirgi o`rnatilgan ishlab chiqarish quvvatlaridan to`liq foydalanishga imkaniyat bermayabti.

Aksiga olib, hozir qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlab chiqaradigan tarmoqlarda sanoatning iqtisodiy natijasi yaxshi emas. Yuqorida ta`qidlaganimizdek, Korakalpog`iston respublikası saloxiyatli tabiiy va iqtisodiy resurslarga ega bo`lsa ham, sanoat tarmoqlaridagi hozirgi ko`rsatkichlar O`zbekistondagi eng past darajani tashkil etadi va yillik sanoat mahsulotlarining faqat 1,7-2%-ini taerlash imkaniga ega. Aholining jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish esa 3 marta deyarli past. Bunday qiyin ahvoldan chiqishning birdan-bir

yo`li sanoatda yangi iqtisodiy reformani keng joriy qilish va uning samaradorligini orttirishdan iborat. Shunga yangi reformani ish yuzasida amalga oshirishda respublika sanoatining o`ziga xos hususiyatlarini va uning asosiy bosqichlarini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Birinchi bosqichda markazlashgan hokimchilik boshqarvudan bozor munosabatlariga o`tishni ta`minlash orqali bozor ixtisadietining asosini shakllantirish natijasida ko`p bosqichli iqtisodiy alaxalarga o`tish. Bu jarayon bizning respublikamizda shakllandi va uz natijalarini berayabdi.

Keyingi yillar ichida engil sanoatga tegishli ip egirish, tuqimachilik korxonalarining mulk shakllarini aniqlash masalalari xam ishga osirilmakda.

Iqtisodiy reformaning asosiy ustuvor yo`nalishiga boglik sanoatda ilg`or texnologik uskunalar bilan ta`minlangan, eksportga mahsulot chiqarish mumkinchiligiga ega korxonalarni tuzishimiz zarur. Bu yo`nalishda chet el firmalarining hamkorligi bilan tuqimachilik komplekslarini qurishni davam etishimiz kerak. Shu boys Ellikqal`a tumanida qurilgan to`qimachilik kompleksida ishlab chiqarish kuvvlardan to`liq foydalanisha erishish zarur. Bu kompleksning to`liq ishga tushishi yiliga xajmi 20 mln. dollar mahsulot ishlab chiqarish mumkinchiligini beradi, demak bu «Kateks»ga nisbatan mahsulotni 2 marta ko`p chiqaradi degan suz. Yakin kelajakda shunday yana bir to`qimachilik kompleksi-Chimboy shahrida qurish muljanmakda.

Bazar iktisodietiga utishning ustuvor yo`nalishlarida aholi iste`mol tovarlarini tayyorlaydigan korxonalarni kayta tamirlash va qishloq xo`jalik mahsulotlarini to`lig`i bilan qayta ishlovchi va o`zini-o`zi harajat bilan ta`minlaydigan korxonalarni qurish kursatilgan. Bu masalalarni echishda Qoraqalpog`iston respublikasi davlat bashorat qo`mitasi va iktisodiet , Vazirligining, Respublika mikiesida, ishlab chiqarish birlashmalar va korxonalarni tuzish buycha ishlab chiqqan va jokargy kengash sessiyasida qabul qilingan «Qoraqalpog`iston Respublikasining ijtimoiy-iktisodiy tarmoklarining 2000--2005 yillar va 2010 yilgacha oraliqdagi rivojlanishining asosiy yo`nalishlari» mavzusidagi dasturi katta ahamiyatga ega. Shu dastur asosida qishloq rayonlarida ortiq mehnat

resurslarini foydalanish maqsadida sanoat ob`ektlarining qurilishini ko`paytirish zarur.

Ushbu qabul etilgan hujjatlar asosida yaqin yillar ichida qishloq xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoatida 44 yirik ishlab chiqarish korxonalar, kichik korxonalar va tsehlarni yangidan kurish va rekkonstruksiyalash ishlarini olib borish nazarda tutilmoqda. Shuning ichida 33 korxonalar yangidan solish rejalashtirilgan. Demak, bu 3000-dan kishini ish bilan ta`minlashga mumkinchilik beradi.

Shu chora va tadbirlar asosida bunet etildigan engil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarini kurish rejalashtirilgan. Respublika buyicha engil sanoat mahsulotlarini etishtirish xojimini yaqin illar ishida 6,7 mlrd sumga kupaytirishni ta`minlaydi, bu region buyicha etishtiriladigan engil sanoat mahsulotlarining xajimini 2010 yillarga kadar 110-115 mlrd.sumga kupayichiga yil ashadi.

2.3. Qoraqalpog`iston Respublikasida qishloq xo`jaligini rivojlanishi va geografik joylashishi

Qoraqalpog`iston Respublikasi hududida qishloq xo`jaligi xalq xo`jaligining eng yirik tarmoqlaridan hisoblanadi va aholini kundalik ehtiyoj mahsulotlari hamda sanoatning ayrim tarmoqlarini zarur mahsulot bilan ta'minlashda katta rol o`ynaydi. Qishloq xo`jaligi tarmoqlarini rivojlantirish xo`jalik muammolari ichidagi asosiy vazifalardan hisoblanadi va hozirgi kunda hukumat organlarining diqqat markazidagi bosh masalalar qatoriga kiradi. Haqiqatdan ham Qoraqalpog`istonning tabiiy-iqtisodiy sharoitida qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishning eng asosiy tarmoqlaridan hisoblanadi va bu tarmoqning rivojlanish darajasini sanoat relsiga yaqinlatishtirish amali ehtiyojlar ishga oshirildi. Ayniqsa, 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, xalq xo`jaligini, jumladan qishloq xo`jaligining moddiy-texnika bazasini uyushtirish uchun ajratilgan yirik mablag`larning hajmi 1,9 mlrd. so'm, 1986-1990 yillarda 2,5 mlrd. so'm, 2000 yili 33,9 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2000 yili 33,9 mlrd. so'mga ko'paydi. Ana shu sarflangan mablag`larning 33% i ishlab chiqarish ob'ektlarni

qurish, qishloq xo'jalik mashinalarini sotib olish, transport tarmoqlarini yaxshilash va boshqalar uchun foydalanildi. Bu shirkat va fermer xo'jaliklarining mashina, traktor bazasini kengayti-rishga va yaxshilashga yo'l ochdi. Keyingi yillarda respublikamizning qishloq xo'jaligi yuqori saviyali hamda kuchli traktorlar S-100, K-700, K-701 "Keys", "Klass" va boshqa yuqori sifatli paxta terish mashinalari bilan ta'minlandi.

Qishloq xo'jaligida energiya quvvatlaridan foydalanishning tez sur'at bilan o'sishiga bog'liq mehnatni energiya bilan ta'minlash darajasi ikki hissa ortdi. Qishloq xo'jaligini bundan so'ng intensiv rivojlantirish uchun kimyolashtirishning va melioratsiyaning roli kuchaytirildi.

Keyingi yillarda davlat qarorlariga muvofiq sug'oriladigan erlarda dehqonchilikni rivojlantirishning yangi majmua dasturi ishlab chiqildi. Bu Respublikada qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun katta tarixiy ahamiyatga ega hujjat bo'ldi.

Qoraqalpog'iston sug'orish tizimlarining qayta ta'mirlanishi natijasida dehqonchilik rayonlarida kollektor-drenaj to'rlari tarmoqlari ko'paydi. Sababi, o'lkamiz sharoitida buni qurish ekin maydonlarning meliorativ holatini yaxshilashda eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Dehqonchilik. Hozir Qoraqalpog'iston O'zbekistondagi eng yirik dehqonchilikka ixtisoslashtirilgan mintaqalardan hisoblanadi va bu erda 1,3 mln. ga yaqin obikor dehqonchilik uchun foydalanishga yaroqli ekin maydonlari mavjud. Statistik ma'lumotlarga nazar salsak, respublika hududida suv bilan ta'minlangan ekin maydonlar 456,8 ming gektarni tashkil qiladi. Shu jumladan, hozir dehqonchilikda foydalanilayotgan ekin maydoni 405,8 ming ga. barobar.

Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari uchun foydalaniladigan erlarning miqdori va tarkibini 14-jadvaldan ko'rish mumkin.

Berilgan ma'lumotlarga qaraganda, respublika bo'yicha sug'orib ekiladigan ekin maydoni tarkibida texnik ekinlar 36,6% tashkil etadi. Masalan, 1965 yillarda qishloq xo'jaligida foydalanadigan erlar 176,5 ming ga bo'lsa, 2000 yilga kelib

esa 405,8 ming gektarga ko`paydi. Shu yillar ichida g`alla maydoni 2,6 hissaga, paxta maydoni 2,4 hissaga, beda uchun ajratilgan ekin maydoni 52,4 ming gektarga etdi, buni 1940 yilga solishtirganda 11,6 ming gektarga ko`p degan so`z. Ko`rsatilgan yillar ichida, ayniqsa, donli ekinlar maydoni ko`paymoqda. Agar 1940 yillarda respublika bo`yicha g`alla uchun ajratilgan maydon 47,8 ming ga bo`lsa, bu ko`rsatkich 1945 yili esa 126,2 ming gektarga ko`paygan.

G`alla maydoni ayniqsa, 80-yillardan boshlab kengaytirildi. O`zbekiston va Qoraqalpog`iston Respublikalari o`z mustaqilligiga erishishi bilan xalq ehtiyojini hisobga olgan holda oziq-ovqat mahsulotlarini ko`paytirish maqsadida g`allachilikni rivojlantirishga alohida e`tibor berilmoqda. Masalan, 2000 yillarda respublikada g`alla uchun ajratilgan ekin maydoni 133,2 ming gektar bo`lsa, shundan sholigarchilik maydoni 61,2 ming gektarni tashkil qildi. Dehqonchilik tarmoqlari ichida paxtachilik katta ahamiyatga ega. Bu tarmoq avvalgidek davlat daromadini pul bilan ta`minlab qishloq xo`jaligining ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu sababli ekin maydonidan yiliga 36,6-37,6 % i paxta uchun ajratildi.

Paxtachilik. Respublikada qishloq xo`jaligini kelajakda rivojlantirish uchun tabiiy-iqtisodiy rayonlarning sharoitiga qarab, xo`jaliklarda ixtisoslashtirish ishlarini hayotga tadbiiq qilish rejalashtirilmoqda. Qishloq xo`jalik ishlab chiqarishida ixtisoslashtirish masalalari ko`rilgan faqat tabiiy-iqtisodiy rayonlarning yoki barcha respublikalarning tarkibida emas, u har bir tumanning hududiy shartini hisobga olib, xo`jaliklar orasidagi ixtisoslashtirish ishlarini amalga oshirish nazarda tutilishi kerak.

Paxtachilik respublikamiz qishloq xo`jaligining rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda paxtachilik butun ekin maydonining 43% ini egallaydi.

Respublikamizda paxta maydonlari keyingi yillarda 134,5% ga va olinadigan hosilning miqdori ham deyarli ko`paydi. Agarda, 1965 yillarda paxtadan olingan hosil 269 ming tonna bo`lsa, 1995 yilga kelib, bu ko`rsatkich 288,2 ming tonnaga etdi. Biroq hosildorlik esa gektariga 21,4 tsentnerdan faqat 22,1 tsentnerga ko`tarildi. Paxtachilikda yutuqqa erishish yangidan o`zlashtirilayotgan

ekin maydonlarining ko'pligi bois amalga oshirildi. Keyingi 20 yil ichida respublikadagi ekin maydonlari kengaytirildi. Respublika qishloq xo'jaligini kelajakda rivojlantirish uchun olib borilgan ishlarning natijasida ob-havoning noqulayligiga qaramasdan paxtachilikni rivojlantirish yuqori darajada olib borilmoqda. Paxta hosildorligini oshirish melioratsiya, kimyolashtirish va mexanizatsiyaning hajmini kuchaytirishida o'zining ahamiyatini ko'rsatmoqda. Biroq, bu ko'rsatkichning ta'siri paxtachilikda unchalik sezilmayapti.

Natijada qishloq xo'jaligida paxta hosilining miqdori keyingi 15 yilda faqat ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga oshmoqda.

Ayrim xo'jaliklar yangi islohatlar sharoitida shakllantirish masalalarida kamchiliklarga yo'l qo'yib, mahsulotning iqtisodiy samoradarligini pasaytirdi. Binobarin, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini agrosanoat usuliga o'tkazish, uning moddiy-texnik bazasini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Yildan-yilga mineral ozuqalarni ko'paytirish, ishlab chiqarishni texnika bilan ta'minlash, yirik suv xo'jaligi ishlarini yurgizish va kollektor-drenaj tarmoqlarini qurish, erning meliorativ holatini yaxshilash, ishchi va mehnatkashlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish katta ahamiyatga ega. Bu paxtadan olinayotgan hosilning ortishiga ta'sir qiladi. Ayrim shirkat va fermerlarning ish tajribalaridan ma'lumki, respublikada paxta hosildorligining ortishi uchun katta imkoniyatlar bor. Respublikada paxtani tez sur'atda rivojlantirishga ahamiyat berilmoqda. Shuning oqibatida dehqon-fermer va shirkat xo'jaliklari mo'l hosil etishtirmoqda. Masalan, Beruniy tumanining "Navoiy", To'rtkulning «Namuna» xo'jaliklari va Amudaryoning «Y. O'razboev» nomidagi jamoa xo'jaligida paxtadan olingan hosil bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishdi.

Respublikaning janubiy zonasidagi bir qancha xo'jaliklarda, shuningdek, shimoliy zonada joylashgan ayrim brigadalar hosildorlikni oshirishda katta yutuqlarga erishdi. Ularning har biri 1 ga. dan olinadigan paxtani 27-34 ts va undan ham ko'proq etishtirdi.

1980-2000 yillar oralig'ida respublika tumanlari va tabiiy-iqtisodiy zonalari bo'yicha paxta ekishning geografik joylashuvida katta tadbirlar ishlab chiqildi.

Bu respublikada, ayniqsa, janubiy mintaqalarda paxta hosilining ortishiga imkon yaratdi (jadval-10).

Jadval-10

Qoraqalpog`istonda 1980-2014 yillar ichida paxta etishtirish

Yillar	Paxtaninig ekin maydoni (ming. ga)	Hosildorlik (ts/ga)	Umumiy mahsulot (ming. Tonna)
1980	133,7	32,2	430,2
1985	163,4	22,1	361,3
1990	153,0	22,6	349,0
1995	145,5	19,8	288,2
2000	145,5	13,5	196,8
2005	102,9	19,5	184,1
2010	101,0	18,2	188,2
1/01/ 2014	95,7	24,6	215,8
2014 -1980yga % hisobida	71, 6	76,5	-50,2

Respublikaning janubiy rayonida paxtachilikni rivojlantirishda qilingan bir qancha ishlar yaxshi samara berdi, ya`ni bu rayonning tabiiy-iqtisodiy rayonlari erlarni ekishga puxta tayyorlash, yangidan o`zlashtirilgan erlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularda mexanizatsiya va kimyolashtirishning rolini kuchaytirish va mehnat resurslaridan unumli foydalanish natijasida paxtada olinadigan hosildorlikni oshirishga imkoniyat yaratadi. Shu tufayli paxtaning hosildorligi shimoliy rayonga qaraganda deyarli yuqori. Buni quyidagi jadvaladan ko`rishimiz mumkin.

Ko`rsatilgan ma`lumotlarga qaraganda, janubiy rayonda paxta ekiladigan maydon shimoliy rayonga nisbatan kam, lekin hosildorlikni oshirish uchun imkoniyatlar mavjud. Shu tufayli effektiv haroratga ega janubiy rayonda paxtaning ekin maydonlarini kengaytirish mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ham yordam beradi.

Oldingi tumanlarning, xo`jalik va brigadalarning ish tajriba-laridan foydalanish orqali respublikaning tabiiy-iqtisodiy rayonlarida paxtachilikni yanada rivojlantirish uchun imkoniyatlar bor.

Qishloq xo`jaligining moddiy shakllanishi ahamiyatli iqtisodiy ishlarni amalga oshirishi, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishini kelajakda rivojlantirish uchun yaxshi asos tuzmoqda. Bu borada Qoraqalpog`istonda keyingi yillarda qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish va uni texnik tomondan qayta ta`minlash bo`yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishiga ajratiladigan yirik harajatlarning miqdori orttirildi. Masalan, 1980-1985 yillar ichida respublikaning qishloq xo`jaligi tarmoqlarida ishlayotgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati 1976-1980 yillarning miqdoriga taqqoslaganda 50,9% ga ko`paydi. 1990 yilga kelib esa bu ko`rsatkich 1 mlrd. so`mni tashkil qilsa, 1991 yili esa 1,2 mlrd. so`mga ko`paydi. Qishloq xo`jaligi sohalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan jihozlash darajasi yaxshilanmoqda. Yuqori sifatli texnikalar, mineral o`g`itlar va boshqa moddiy-texnik resurslari yil sayin ko`paymoqda. Bu va boshqada qishloq xo`jaligining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar tumanlar va mintaqalar bo`yicha paxtachilikni rivojlantirishga imkon berdi.

Qoraqalpog`istonning qishloq xo`jaligi hozirgi zamon texnikalari bilan qayta jihozlandi. Ularning umumiy energetik quvvati 1493434 ot kuchiga etkazildi. Amudaryoning quyi qirg`oqlarida yangi erlar o`zlashtirilgan va yangidan paxtachilik, sholikorlik xo`jalik-larining tashkil qilinishi bilan traktorlarning, kombaynlarning, paxta terish mashinalari va boshqa qishloq xo`jaligi texnikalarining soni ko`paytirildi. Masalan, 1980 yili qishloq xo`jaligi-dagi traktorlarning soni 13,2 ming dona bo`lsa, bu ko`rsatkich 1990 yili 15,6 ming donaga, paxta terish mashinalari esa keyingi 10 yil ichida 5119 ga etdi. Suv xo`jaligi qurilishi borasida ham yirik miqdorda ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi magistralli kanallar va kollektorlar, gidrotexnik inshootlar qurilmoqda va ularning ishlab turganlari qayta ta`mirlanmoqda, bularning barchasi ekin erlarining meliorativ holatini yaxshilab sug`oriladigan erlarni suv bilan ta`minlash darajasining ortishiga yordam beradi.

Qoraqalpog`iston sharoitida paxtachilik bilan shug`ullanadigan xo`jaliklar eng shimoliy kenglikda joylashganligini hisobga olib va ob-havo sharoitidagi

o`zgarishlarga yangi agrotexnikaviy tomondan ishga oshiriladigan hamda boshqa shartlarni hisobga olgan holda paxtaning ertapishar va mashina terimiga qulay, yuqori hosildor navlarni ekish zarur.

Respublika sharoitida qishloq xo`jaligida, ayniqsa, paxtachilik tarmoqlarida sarf-xarjlar va mehnat resurslarining ko`p ishlatilishi paxtaning o`ziga tushar bahosining ko`payishiga olib kelmoqda. Mahsulot bahosining ko`tarilishiga respublikaning tabiiy-iqtisodiy mintaqalari bo`yicha qishloq xo`jalik tarmoqlarining iqtisoslashish darajasi ham ta`sir ko`rsatmoqda. Shu tufayli Qoraqalpog`istonda dehqonchilik tarmoqlarini ixtisoslash-tirishni tezlashtirish, ekin maydonlarini kengaytirish va kompleksli mexanizatsiyani keng amalga oshirish paxtachilik tarmoqlarida mahsulotning bahosini arzonlatishga yo`l ochadi. Bularni amalga oshirish iqtisodiy tomondan katta natija berishini Qoraqalpog`istonning dehqon-fermer xo`jaliklari va ixtisoslash-tirilgan tumanlarning ayrim yutuqlari to`liq isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, respublika hududida hozirgi kunda etishtirilayotgan paxtaning 82,5 % i ixtisoslashtirilgan paxtachilik xo`jaliklarida etishtiriladi. Lekin, paxta etishtirishdagi xato fikr va mulohazalarga nisbatan paxtachilik respublika bo`yicha katta natijalar bermayapti. Paxtaning hosildorligi past, shu tufayli mahalliy, ob-havoga moslashgan sifatli, paxtaning tez pishar «S-4727», «Ch-3104» va «Ch-3010» navlarini keng miqdorda tarqatish zarur. Bu paxtachilikni rivojlantirishga va ishlab chiqarish jarayonida unumdorlikning ko`tarilishiga sabab bo`ladi.

G`allachilik. Qoraqalpog`iston Respublikasida sholikorlik eski tarmoqlaridan biri bo`lsada, ko`p yillar davomida sholikorlik paxtachilik xo`jaliklarining ko`shimcha tarmog`i bo`lib, u past darajada rivojlandi. Oqibatda har gektar erdan olinadigan mahsulotning miqdori 10 tsentnerdan ortmadi. 60-yillarga kelib, Qoraqalpog`iston eng yirik sholikorlik rayonsiga aylandi. O`zbekistonda etishtiriladigan yillik sholi hosilining 72% ini beradigan bo`ldi, ayrim yillar ichida Qoraqalpog`istonda sholikorlikning rivojlanishini quyidagi jadvaldan ko`rishimiz mumkin.

1955-2000 yillar ichida Qoraqalpog`istonda sholikorlik deyarli rivojlandi.

Ko`rinib turibdiki, 1955-2000 yillar ichida sholi maydoni 13,6 ming gektardan 26,2 ming gektarga, ya`ni 193 % ga kupaydi. Umumiy mahsulot 27,0 ming tonnadan 43,9 ming tonna, ya`ni 162,6%ga hissa oshdi. Hosildorlik esa gektariga 19,6 ts/ga ya`ni 102,8% ni tashkil qildi. Lekin Qoraqalpog`iston O`zbekistondagi eng yirik sholikorlik rayonsi bo`lib shakllansa ham, ayrim ko`rsatkichlar bo`yicha yil sayin pasaymoqda. Sababi qo`shni Xorazm viloyati ham sholikorlik bilan shug`ullanadi. Ular yuqori sifatli tarmoqqa ega. Viloyat hududida 1966-94 yillar ichida sholi maydoni 5,7 ming ga dan 28 mln ga ya`ni 5,7 hissaga, umumiy hosil 16,2 ming tonnadan 187 ming tonnaga ya`ni 11,6 hissaga, hosildorlik gektariga 28,4 ts dan 35,2 ts ga ko`paydi. Doim bir xil tabiat sharoitga va er-suv resurslariga ega bo`lsada, bu viloyat sholining o`rtacha hosildorligi bo`yicha O`zbekistonda yuqori o`rinda turadi.

1966 yili Qoraqalpog`istonda «Qoraqalpoqsovxozstroy» boshqar-masi tuzildi. U barcha sholikor xo`jaliklarning ishlab chiqarish va madaniy maishiy binolar qurishida, sug`orish tarmoqlarini injenerlik usulda tuzish va qayta tekshirish, yangi erlarni o`zlashtirish, kadrlar tayyorlash va sholi etishtiruvchi xo`jaliklarni moddiy-texnikaviy tomondan ta`minlaydi. Shunday qilib, ishlab chiqarishni boshqarishni markazlashtirish, ixtisoslashgan xo`jalik-larni tuzish, ularning moddiy texnikaviy bazasini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Shuning natijasida sholikorlik xo`jaliklarida etishtirilgan hosilning miqdori 1985 yillari 70 mln so`mni tashkil qildi. 100 ga ekin maydoniga to`g`ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarining foydasi 1970 yillari bilan solishtirganda 1,7 hissa, 1966 yil bilan solishtirganda esa 6,3 hissa ortdi. Sholikor xo`jaliklarni zarur texnika bilan ta`minlash va erlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun sarflanadigan mablag`larning miqdorini orttirish zarur. Shunga ko`ra, Qoraqalpog`iston sholikorlari oldida mas`uliyatli vazifalar turibdi. Ayniqsa, ekinlarning hosildorligini oshirishda ilmiy asosda almashlab ekishni amalga oshirish lozim. Bu kompleks tashkillashtirilgan, agrotexnikaviy ehtiyojlarni o`z ichiga oladi va tuproqning unumdorligini yaxshilashga, suv resurslaridan unumli foydalanishga

imkon yaratadi. Almashlab ekishning bosh vazifasi, olinadigan mahsulotga sarflanadigan moddiy mablag`larni tuproq unumdorligini tabiiy yo`l bilan oshirish orqali qishloq xo`jalik ekinlarining hosildorligini orttirishdir. Keyingi yillarda Qoraqalpog`istonda sug`oriladigan erlar ikkinchi marta sho`rlanish jarayonidan o`tmoqda, ya`ni Orolning suv sathi kamayishi ta`sirida bu mintaqadagi sharoit qiyinlashmoqda. Shu sababli, erning meliorativ holatini yaxshilash bo`yicha ishlarni amalga oshirish dehqonchilikni intensivikasiya-lashning ajralmas qismi bo`lib hisoblanadi. Agrotexnikaviy uslublardan to`g`ri foydalanilsa, qishloq xo`jaligi ekinlarining hosildorligini orttirish mumkin.

Shu qatorda Nukus, Taxtako`pir tumanlarida ham gektariga 32-34 ts hosil olinmoqda. Ayrim xo`jaliklar, masalan, Nukus tumani «Sho`rtanboy», Taxtako`pir tumanidagi «Taxtako`pir», Qo`ng`irotdagi «Ko`kdaryo» jamoa xo`jaliklari hosildorligini orttirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Keyingi yillardagi havoning salqin kelishi, bahorning seryog`in kelishi paxtachilik xo`jaliklariga zarar etkazsa ham, sholikorlik xo`jaliklariga unchalik zarar bermadi, aksincha ayrim yillarda sholichilik xo`jaliklari rejalarini ortig`i bilan bajarishga erishdi. Shu sababli, Qoraqalpog`iston Respublikasining shimoliy rayonlarini sholigarchilikka, janubiy rayonlarni paxtachilikka moslashtirish bir qancha maqsadga muvofiq keladi.

Qoraqalpog`iston Respublikasida sholigarchilikni rivojlantirish hamda joylashtirishda iqlimiy sharoitlarni va suv zahiralarini hisobga olishimiz kerak. Agar suv zahiralari etarli bo`lsa, sholichilikni yangi erlarni o`zlashtirish hisobidan rivojlantirish mumkin. Agar suv-zahiralari etarli bo`lmasa, unda har gektar erdan olinadigan mahsulotni ko`paytirish va suvni kam sarflaydigan ekinlarning maydonini ko`paytirish yo`li bilan sholichilik va boshqa ekinlardan olinadigan mahsulotning miqdorini orttirish mumkin.

Chorvachilik. Qoraqalpog`istonda chorvachilik, dehqonchilik kabi qishloq xo`ja-ligining muhim tarmoqlaridan hisoblanadi. U birinchidan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlasa, ikkinchidan oziq-ovqat va engil sanoat tarmoqlarini

xom ashyo bilan ta'minlaydi. Shu bilan boshqa iqtisodiy rayonga chiqarish uchun asosiy moddiy mahsulotlar beradi.

Qoraqalpog'istonda chorvachilik rivojlangan tarmoqlariga qo'ychi-lik, yirik qoramol, cho'chqachilik, tuya va yilqi etishtirish, parrandachilik va pillachilik tarmoqlari kiradi. Bularning ulushiga 2005 yilgi ma'lumot bo'yicha qishloq xo'jalik tarmoqlarida etishtirilgan mahsulotning 40,2 % to'g'ri keladi.

Berilgan ma'lumotlarga qaraganda, Qoraqalpog'iston bo'yicha chorva mollarning bosh soni umuman olganda ancha o'sdi. Masalan, 1981-2010 yillarda barcha xo'jaliklar bo'yicha yirik qoramollarning bosh soni 2 hissaga, shundan sigirlarning bosh soni 2,3 hissaga ortdi.

Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirishga yo'l ochdi. Masalan, 1981 yil bilan solishtirilganda 2005 yilga kelib respublikada go'sht etishtirish (so'yilgan holda) 110,0 %, sut 102,4 %, qoramol terilarini tayyorlash 103,0 % ni tashkil qildi.

Keyingi yillar ichida chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Mollarning em-hashak bazasi mustahkamlandi va kengaytirildi. Chorvachilikni ixtisoslashtirish natijasida sobiq xo'jaliklararo birlashmalarining, assosatsiyalarining va davlat xo'jaliklarining kuchi bilan em-hashak tayyorlash, fermalarni mexanizatsiyalashtirish, chorvachilik majmualarini qurish, ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish, mahsulot tayyorlashni ko'paytirish bo'yicha yirik ishlar amalga oshirildi. Bu chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirishga yo'l ochdi

Biroq bundan xususiylashtirilgan xo'jaliklarda mollarning bosh soni ko'paydi degan tushuncha kelib chiqmaydi. Aksincha, keyingi yillarda, ayniqsa, 1996-2000 yillar oralig'ida qishning juda sovuq kelishi, ayniqsa, chorvachilik tarmoqlarida chorvani qishlatish ishlariga tayyorgarlikning past darajada bo'lishi sababli mollar soniga salbiy ta'sir etadi. Go'sht tayyorlash, asosan yakka xo'jaliklarda ishlarning to'g'ri tashkil etilishi hisobiga bajarildi va ko'p xarajat sarflandi. Shuning uchun chorvachilikni rivojlantirishda asosiy masalalarning biri

mahsulotning tannarxini arzonlashtirish va ishlab chiqarishning rentabelligini orttirishga qaratilishi shart. Bu o`z navbatida ishlab chiqarishning asosiy fondlaridan foydalanishni yaxshilash va xo`jalikning ichki imkoniyatlarini to`liq ishga qo`shishni talab etadi.

Qoraqalpog`iston Respublikasi kelgusida qishloq-xo`jaligida foydalanish uchun yaroqli ekin moydanlariga boy bulib, ulardan samarali foydalanish 47,9 ming tonna boqsha, 149 ming tonna savzavot, 31,6 ming tonna.

2.4. Xorazm viloyatida qishloq xo`jaligini rivojlanishi va geografik joylashishi

Xorazm viloyati O`zbekiston Respublikasining avvaldan suvg`ormali dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan regionlardan xisoblanadi. Viloyat hududida suvg`orilib ekiladigan dehqonchilik sohaslarini rivojlantirish bo`yicha katta ishlar amalga oshirildi va bu soha yiliga 52% qishloq xo`jalik mahsulotlarini tayorlaydigan bo`ldi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda suvg`orish tizimlarini yangidan qurish va ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash bo`yicha amaliy choralar amalga oshirildi. Magistralli suvg`orish kanallari, masalan "Tosh sag`a", "Pitniyak arna", "Shabat", "Palvan-Gazobad", "Qiliniyazboy" uxshagan irrigatsiyaviy tizimlar hozirgi zamon talablariga mos etib ishga qushildi va irmoqlari injenerlik uskunalari bilan ta`minlandi. Keyingi yillarda, ayniqsa 1952-yillardan keyin Xorazm viloyatining iqtisodiy ijtimoiy darajasi yuqoriladi. Navoiy-Uchquduq-Miskin(Turtkul)-Nukus, Charchao`-Qung`irot va Beyneo`-Makat-Aleksandrov-Gay yo`nalishidagi temir yo`l liniyasining ishga tushirilishiga bog`liq viloyatning transport-iqtisodiy ahvoli yaxshilandi yirik-yirik suv xo`jaligi ishlarini amalga oshirish uchun sharoitlar tuzildi, temir beton konstruktsiyalarini ishlab chiqaradigan karxonalar tuzildi va qishloq-xo`jaligida foydalanadigan ekin maydonlarini injenerlik usulda kartalashtirish masalasi echildi. Qishloq xo`jaligi bilan shug`ullanadigan karxonalarda tashkillashtirish masalasini kuchaytirish va ishlab chiqarish xizmatkorlarini moddiy rag`batlantirish tamoyillarining ishga oshirilishiga bog`liq qishloq xo`jalik mahsulotlarini

tayyorlashning ko`lami orta boshladi. 1940-yillarda viloyat bo`yicha 78 ming tonna paxta tayyorlandi, bu 1928 yilga nisbatan 4,5 esa ko`p. Davlat tomonidan paxta tolasiga bo`lgan talabning kuchayishiga bog`liq “Tosh sag`a” va boshqada kanallarning irmoqdan suv o`tkazish mumkinchiligi kupaytirildi. Yordamchi suv etkazuvchi “Tuyamuyin”, “Torang`ilsag`a” kanallarining ishga tushishi va normalangan suvg`orish rejimlari bir tutash rejaga o`tkazildi.

Melioratsiya sohalarida ham ko`lamli ishlar amalga oshirildi. Ekin maydonlarining meliorativlik holatini yaxshilash maqsadida O`zbekistondagi yirik meliorativlik qurilishlarning biri magistralli “Daryolik” katta ko`llar zovuri va “G`azabat-Dao`dan”, “Yangibazar” zovurlari foydalanishga topshirildi.

Bu yana boshqa choralar viloyat bo`yicha ekin maydonlarining meliorativlik holatining yaxshilanishiga, er osti suvlarining sadhini pasaytirishga va ushbu asosiy suvg`ormali dehqonchilik sohalarining, ayniqsa paxtachilikning rivojlanishiga yo`l ochdi.

Paxtachilik. Xorazm viloyati O`zbekistondagi yirik paxtachilikga ixtisoslashgan hududlardan hisoblanib, uning ulushiga respublika bo`yicha etishtiriladigan paxta maxsulotining 8,1-9,2% to`g`ri keladi. Paxtachilik viloyat bo`yicha dehqonchilikning eng asosiy sohasi. Agar qishloq xo`jaligi bo`yicha etishtirilgan mahsulotni 100% deb hisoblasak, shuning 74-76% i paxtachilik sohalaridan o`ndiriladi. Shunga mos paxtachilik asosiy pul daromadlarini tuplaydigan soha sifatida intensivli rivojlanmoqda va g`aznani pul bilan ta`minlaydigan soha sifatida viloyatning barcha tumanlarida deyarli ekiladi (jadval-11). Jadvalda berilgan ma`lumotlarga ko`ra 1940-2010 yillar oralig`ida, yoki keyingi 70 yil ichida viloyat bo`yicha paxta etishrish 2,7 marta ko`paydi, har gektariga esa erdan olinadigan paxtaning hosilligi 2,5 marta, ekin maydoni esa 48,7% ga yuqoriladi. Shunday qilib ko`rsatilgan yillar ichida viloyat hududida paxtachilik sohalarida katta muvoffaqiyatlar qo`lga kiritildi. Paxta etishtirish bo`yicha qo`lga kiritilgan ayrim muvoffaqiyatlar barchasidan da`oldin har gektar ekin maydonidan olinadigan hosildorlikning yuqorilashiga bog`liq bo`ldi.

Xorazm viloyatida paxtachilikning rivojlanishining asosiy kursatkichlari

Kursatkichlar	Yillar 1/01								1.01.2014 yil % xisobida	
	1940	1955	1970	1980	1990	1995	2005	2014	1940	2005
Paxtaning ekish maydoni ming gektar	7,2	97,6	104,5	105,0	110,8	102,1	107,4	110,6	153,6	103,0
Xosillik tsentnerga	10,9	...	39,0	42,1	31,5	29,8	27,3	24,9	2,3 marta	91,2
Umumiy mahsulot	76,6	195,9	407	442,0	349	304,7	293,2	275,0	3,6 marta	93,8

Agar 1940-1995 yillar oralig`ida ekin maydoni faqatgina 41,4% ga ortsa, u umumiy yig`ib olingan paxta mahsuloti 400% ga, yoki 4 martaga yuqoriladi. Shunday qilib shu davr ichida paxta mahsuloti etishtirishning to`rtidan bir ulushi ekin maydonlarining ortishiga bog`liq bo`lsa, qolgan to`rtidan uch bo`limi hosildorlikning yuqorilashi asosida amalga oshdi. Lekin 1980 yillardan boshlab paxtachilik sohalarida teskari tendentsiyalar yuz bera boshladi. Paxtaning hosildorligi keyingi 15 yil ichida 12,3 tsentnerga yoki yiliga 1% deyarli kamayadi, shu boys yillik etishtirilgan paxta mahsulotining hajmi 137,3 ming tonnaga, kamayib ketdi. Bu birinchidan Orol muammosiga aloqodori regionda yuz bergan ekologik jarayonga bog`liq bo`lsa, ikkinchidan agrotexnikaviy qoidalardan dehqonchilikda foydalanishning o`zilishga tushganligini bayonlaydi. Buni respublika masshtabida paxtachilik bo`yicha ko`rsatkichlarga Xorazm viloyatining tutgan solishtirma ulushidan ko`rishga bo`ladi.

Xorazm viloyati hududida paxtachilik sohalarini rivojlantirish bo`yicha zaxirada kam emas birdek tabiiy meliorativ sharoitda joylashsa ham bir necha xo`jaliklar hattoki tumanlar hozirning o`zida yuqori xosil etishtirib bormoqda. Masalan Yangiariq tumanidagi “Narimanov” nomidagi, Qo`shko`pir tumanidagi “Axunboboev” nomidagi va boshqa xo`jaliklar har gektar paxta maydonining 41-43 tsentner mahsulot etishtirib, qo`shni xo`jaliklarga taqqoslaganda gektariga 19-21% paxta ko`p etishtirib kelmoqda. O`tgan xo`jalik yilida viloyat tumanlari ichida Xanqa, Yangiariq va Qo`shko`pirda gektariga 30-29,2 tsentner paxta etishtirildi. 22 xo`jalikda paxtaning gektariga hosildorligi 28-33,5 tsentner oralig`ida bo`ldi.

Lekin 12-15 ming paxta maydoniga ega unlab xo`jalikda zuroatlilik gektariga 25-27 tsentnerdan artmaydi. Ayrim yillar ichida Xorazm viloyatining tumanlari bo`yicha paxtachilikning rivojlanishi, ayniqsa ekin maydonlarining geografik joylashishi va tabiiy meliorativ sharoitda tumanlar miqyosida har gektar erdan olinadigan hosildorlikdagi farqlarni pastdagi jadval ma`lumotlaridan ham ko`rish mumkin.

Berilgan ma`lumotlarga nazar solganimizda Qo`shko`pir, Xanqa, Shavat va Urganch tumanlari paxtachilikga ixtisoslashgan yuqori ko`rsatkichlarga ega tumanlar qatoriga kiradi va viloyat hududida yuqori nisbiy ulushga ega. Bu tumanlar yil sayin samarali hosil to`plomoqda va viloyat miqyosida etishtiriladigan paxta mahsulotining 46,9% ni tayyorlaydi. Qolgan 7 tuman esa viloyatning 53% dan ko`proq paxta maydonini egalashiga qaramasdan barchasi bo`lib yillik etishtiriladigan paxtadan faqat yarimidan ortig`igina o`ndiriladi. Paxta mahsulotini etishtirishda hattoki bir-biri bilan chegaradosh va birdek tabiiy meliorativ sharoitga ega xo`jaliklar arosida ham katta farq uchraydi. Shuning uchun birdek sharoitga ega bo`lsa xam orqada qolganlar qatoridan o`rin olgan xo`jaliklarni, o`rtachalar va oldingilar qatoriga qushish hozirgi kunning asosiy vazifalari qatoriga kiradi. Bu choralarni tezdan amalga oshirish viloyat miqyosida yillik paxta mahsulotini tayyorlashni eng kam deganda 6-11% ga yuqorilatishga mumkinchilik to`g`diradi.

Xorazm viloyati hududida qishloq xo`jaligi sohalarini, shuningdek paxtachilik bilan shug`illanadigan xo`jaliklarning moddiy texnik bazasini rivojlantirish bo`yicha ham katta masshtabda amaliy choralar ishlab chiqildi va ish yuzasidan amalga oshirilmoqda. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini texnika bilan ta`minlashning darajasi ortdi va ularning ta`mirlash bazasi kengaytirildi. Agar 1980 yillarda qishloq xo`jaligida 9,9 ming dona traktorlar ish boshlasa, bu ko`rsatkich hozirgi vaqtda 12 ming donaga ko`paytirildi. Paxta teruvchi mashinalar parki 1,5 ming donaga va g`alla yig`adigan kombaynlarning soni 0,7 ming donaga etkazildi va hakozi. Shunga mos qishloq xo`jaligi sohalarida asosiy ish operatsiyalari mexanizatsiyalandi. Shunga to`plangan paxta hosilini mashinalarda terib olish, g`alle o`rish va yig`ib olish, er shudirgarlash, paxta maydonlarini

suvg`arishga tayyorlash, erlarga mineral va anorganik o`g`itlarni chiqarish ekin maydonlarini g`oza poyadan tozalash, ko`zgi va qish oylaridagi irrigatsiya kanallarini, shuningdek zovur-drenaj setlarini tozalash va qazish ishlari kiradi.

Qishloq xo`jaligi sohalarin mexanizatsiyalash manbaini rivojlantirish va meliorativ sohalari uchun kerakli mexanizmlarni ko`paytirish irrigatsiya va melioratsiya sohalarini rekonstruktsiya qilish va ekin maydonlarining meliorativ holatini kengdan yaxshilashga yo`l ochdi. Dehqonchilik bilan shug`illanadigan xo`jaliklarda zovur-drenaj setlarini qurish kengaytirildi va er suvg`orish sohalarida suvg`orishning yangi rejalari va me`yorlari ishlab chiqildi. Shunga mos yirik suvg`orish tizimlarining iyliq suv o`tkazish mumkinchiligi kengaytirildi va suvg`orish tizimlarini tozalash to`lig`i bilan mexanizmlarning ulushiga o`tkazildi. Bu erning meliorativ holatini yaxshilashga va tabiiy hosildorlikni ko`paytishga mumkinchilik yaratadi. Avvaldan amalga oshirilib kelayotgan o`z-o`zligidan suvg`orish ishlari mashina yordamida suvg`orish bilan almashtirildi. Natijada viloyat buyicha ekin maydonlarining maydoni kengaydi va har bir gektar suvg`orilib ekiladigan ekin maydonlaridan olinadigan pullik foydaning hajmi ortdi. 1 gektar ekin maydoni uchun beriladigan mineral o`g`itlarning hajmi yuqorilatildi. Shunday ekan hozir bir gektar ekin maydoniga 314kg o`g`it chiqariladigan bo`ldi, bu 1963 yillardagi berilgan azot va fosfor o`g`itlariga nisbatan 2,4 marta ko`p degan so`z. Ekin maydonlarining meliorativ darajasiga qaray va yuqori hosil to`plash uchun kuzgi asosiy surim ostiga gektariga 10-15 tonna mol o`g`iti yoki 60-70% lik yillik fosfor o`g`itlarini beriladigan bo`ldi, bu ham Xorazm viloyati shoryatida paxtaning biologik uslubda rivojlantirish masalasini xisobga olib 60-70% lik fosfor va kaliy o`g`itlari dozasi 28-30 sm teranlikda berila boshladi. Bu va boshqada qo`llaniladigan choralar erning meliorativ holatini xisobga olib olmashlab ekish tizimini keng tadbiiq qilishga imkoniyat beradi. Bu birinchidan ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilashni echsa, ikkinchidan dehqonchilikning madaniyatini yaqshilaydi, ekin maydonlarining maydonini kengaytirishga yo`l ochdi, natijada 1940 yildan 2010 yillar oralig`ida Xorazm viloyati bo`yicha ekin maydoni 119 ming gektardan 237,4 ming gektarga kupaydi.

Shundan paxtaning ekin maydoni 72 ming gektardan 110,6 ming gektarni tashkil etadi. Lekin bedaning ekin maydoni 27,8 ming gektardan 16,3 ming gektarga yoki 58,6% ga kamaydi. Lekin ko`rsatilgan yillar ichida amalga oshirilgan choralar asosan paxtachilikni rivojlantirishga bog`liq bo`ldi, va boshqa daqllarga ko`pchilik holatlarda e`tibor berilmadi. Bu meva poliz va kartoshka ekinlarining ekin maydonlarining avvalgi shaklida qolishiga, beda uchun esa ajratilgan ekin maydonining kamayib ketgan yillarida bo`ldi. Amalda beda ko`p natijalar berib tabiiy yo`l bilan erning meliorativ holatini yaxshilash va biologik tabiiy usulda erning hosildorligiga ko`p ta`sir qiladiganligi ham hisobga olinmadi. Viloyat demografik tomondan aholisi zich joylashgan va tez sur`at bilan o`sayotgan mintaqalar toifasiga kirishiga qaramasdan meva-poliz va kartoshka ekinlarining ekin maydonlari kengaytiriladi va aholiga toza meva va poliz mahsulotlarini etishtirish masalasi haligacha to`liq darajada echilmayyapti. Shuningdek dehqonchilikning ekin maydonlarining strukturasi yuqorida ko`rsatilgan sohalarning, ayniqsa, beda, meva-poliz, va kartoshka uchun ajratilgan ekin maydonlarini ko`paytirish kerak. Bedaning ekin maydonini kupaytirish o`lmashlab ekish sxemasida javob beradi va paxta mahsulotining sifatini yaxshilashga katta ta`sir qiladi.

Xorazm viloyatida ko`p yillardan buyon paxtaning regionlashtirilgan 108-f navi ekiladi. Bu nav muyayan darajada o`nimdorli, lekin kech pishishiga bog`liq vegetatsiya davrida birinchi qirov tushgunicha 62-95% mahsulot beradi, qolgani bo`limi esa pishib etisha olmay paxta momig`ining sifati pasayadi va hosilni yig`ish mopozi oqiri kuzgacha kechiktiriladi. Shuningdek viloyat hududida paxtaning tez pishar va o`nimdorli yana sifatli navlarini tadbiq qilish navbatdagi masalalar qatoriga kiradi. Shu maqsatda pastki Amudaryo zonasiga rayonlashtirilgan nav sifatida S 47-27 va Xor -10 navlarida sinovdan o`tkazilmoqda.

Lekin bu navlar Xorazm sharoitida pishib etilish muddati, umumiy mahsulot to`plash qobiliyatligi va paxta momig`ining sifati bo`yicha 108-f navidan past. Shuningdek 108-f navini ishlab chiqarishda foydalana o`tirib toza paxta navini

topish masalasini echish amaliy jihatdan ham va ilmiy sinovdan tajriba buyicha to`g`ri bo`lishi kerak.

Paxtachilikda bundan tashqari rivojlantirishda ekin maydonlari to`prog`ining strukturasi mos har gektar er uchun mineral va anorganik o`g`itlarning miqdorini ishlab chiqish katta ilmiy amaliy ahamiyatga ega. Sababi Xorazm viloyati Qo`yi Amudaryoda ertadan dehqonchilikga o`zlashtirilgan tumanlar qatoriga kiradi va ekin maydonlarining sho`rlanish darajasi yana to`prog`ining strukturasi tarkibi bo`yicha ham bir hil emas. Shuningdek jami ekin maydoni uchun ham birdek azot va fosfor o`g`itlarining dozasi kerakli bo`la bermaydi. Bu o`z navbatida ekin maydonining meliorativ sharoyitiga mos mineral o`g`itlarning me`yorini ishlab chiqishni va konsentratsiyaviy tuzilishga ega aralash o`g`itlarning dozasini ko`paytirishni talab qiladi. Ko`p yillik tajribaga muvofiq dehqonchilikda har gektar ekin maydoni uchun 100 tonnagacha shokindi yotqiziqlar foydalanilmoqda. Lekin bu aralash shokindi yotqiziqalarda ko`p sonli mineral tuzlar uchraydi. Shunga mos ularni anorganik o`g`itlar bilan aralashtirib foydalanilsa katta natijalar beradi va mineral o`g`itlarning samaradorligini 15-20 % ga orttiradi. Qishloq xo`jaligi sohalarining samaradorligini orttirishda mehnatning o`nimdorligini orttirish va mahsulotning o`ziga tushish bahosini arzonlashtirish asosiy masala bo`lib hisoblanadi. Faqat Xorazm viloyati holatida mahsulotning o`ziga tushish bahosini 1% ga kamaytirish 7million so`mdan ko`proq mablag`ni tejash imkonini beradiganligin hisboga olsak qishloq-xo`jaligida mahsulotning o`ziga tushish bahosi bo`yicha mexanizmlarni to`liq amalga oshirish davlat masshtabida ko`lamli foydalarni to`plashga yo`l ochadi, lekin qishloq xo`jaligida tashkillashtirish masalasi, ba`zi hollarda bozor munosabatlarining talablariga mos ishlab chiqarish jarayonini qayta qurish va boshqarish usulidagi tartib asta sekinlik bilan olib borilmoqda. Shuning uchun qishloq xo`jaligining barcha sohalorida brigadirdan tartib ish boshqaruvchigacha shtatlar o`mr surmoqda. Natijada qishloq xo`jaligida ishlovchilarning initsiativasi past, ijodkorlik takliflar kurchilik sohalarda amalga oshirilmastan qolib ketmoqda. Bu ishlarni viloyat bo`yicha yil davomida ishlab

chiqarilgan qishloq xo`jaligi hosilining hajmi va o`ni har bir jon boshiga bo`lganda o`rtacha ko`rsatkishda aniq namoyan bo`ladi.

